

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM VAZIRLIGI

Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakul'teti

DAK da himoyaga taqdim etilsin:

«Pedagogika» fakul'teti dekani

_____ **M.Allayarov**

«Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi» ta'lim yo'nalishi

IV – kurs talabasi B.Radjapovning

**«Evropada o'rta asrlar badiiy san'ati. Roman oqimi
shakillanish va rivojlanish yo'llari» mavzusidagi**

BAKALAVR BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Talaba _____ Radjapov B.

Ilmiy rahbar, san'atshunoslik fanlari nomzodi

_____ **Urazimova T.V.**

Himoyaga tavsiya etilsin:

«Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi»

kafedrasi mudiri, dotsent

J.Darmenov

«____»

2016 yil

NUKUS – 2016

**EVROPADA O`RTA ASRLAR BADIY SAN`ATI.
ROMAN OQIMI SHAKILLANISH VA RIVOJLANISH YO`LLARI**

REJA:

KIRISHU. EVROPADA O`RTA ASRLAR BADIY SAN`ATI. ROMAN BADIY SAN`ATI.	3-12
I. X ASR - XI ASRNING BIRINCHI YARMIDAGI G`ARBIY EVROPA BADIY SAN`ATI	13-27
II. FRANTSIYA BADIY SAN`ATI	28-47
III. ANGLIYA BADIY SAN`ATI	48-54
IV. ITALIYA BADIY SAN`ATI	55-64
XULOSA	65-70
FOYDALANGAN ADABIYOTLAR	71-74
SLAYD (prezentatsiya)	

KIRISHU. EVROPADA O`RTA ASRLAR BADIY SAN`ATI. ROMAN BADIY SAN`ATI

X asrning boshiga Evropa chuqur to`ntarish sharoitida kirib keldi. Korol` hukumati so`ngi Karolinglar davrida – yoq butunlay holsiragan holda edi. Papa hokimchiligi ham emirilgan edi, borgan sari erlarning feodal taqsimlanishi kuchaydi.

O`ninchi yuz yillik, XII asrning o`rtasiga kelib G`arbiy Evropada o`zining to`liq shakllanish davriga etadigan, feodal tuzilish doktrinasining paydo bo`lish va tarqalish vaqti bo`ldi. uning eng ahamiyatli institutlari – er xususiyligi va votchina sistema – shakllandi, asosiy sinflar tashkil qilindi, qatlamlar bo`linib chiqdi, ularning ierarxiyasi o`rnatildi. Feodal formatsiyaning asosiga kiritilgan tarixiy olg`a qarab rivojlanishning imkoniyatlarini tyliq amalga oshirishning kelajagi (perspektivasi) ochildi. O`rta asrlik «dunyo kartinasi rivojlangan feodalizm davrida aniq konturga ega bo`la boshladi. Ishlab chiqarish va yuridik munosabatlar, davlat tuzilish, din va madaniyat o`rta asrlarga xos bo`lgan shakllarga ega bo`ldi.

Bu katta ijtimoiy va askariy qo`zg`alishlar davri edi. IX va X asrlar davomida Evropa xalqlariga mavrlarning va vengerlarning chopilishiga qarshi kurashishga to`g`ri keldi. O`ninchi yuz yillikda ayniqsa Skandinaviya xalqlarining xo`jalik yuritishdagi to`ntarishlar, qabila aloqalarining buzilishi va ularning feodalizmga kech o`tishi sababli kelib chiqqan, normannlarning chopishlariga juda xavfli va vayron etuvchi urush bo`ldi. Tashqi qiyinchiliklar fonida Evropa jamiyati ichida ijtimoiy hayotni vayron qiluvchi urush bo`ldi. tashqi qiyinchiliklar fonida Evropa jamiyati ichida ijtimoiy hayotni barqarorlashtiruvchi chuqur jarayonlar bo`lib o`tdi. er bo`yicha feodal munosabatlar shakllandi, hunarchandchilikni qishloq xo`jaligidan ajratish uchu nasos yaratildi, etnik birlashish kuchlari harakatga keldi. Buyuk Karlning imperiyasining territoriyasida u 843 yili emirilib ketgandan keyin paydo bo`lgan uch davlatning har birida yangi xalqlarning: g`arbda frantsuzlarning, sharqda

nemetslarning, janubda ital'yalarning shakllanishi yuzaga keldi. Materikning shimolida Angliyaning korollik hukumati o`rnatildi. X-XI asrlarga ilk feodal davlatlar Pol`sha, Chexiya va Vengriyaning mustaqilligining tasdiqlanishi to`g`ri keldi.

Siyosiy va ijtimoiy hayotda bo`lib o`tgan o`zgarishlar birinchi navbatda o`zini arxitektura va tasvirlash san`atida ko`rsatgan, umumiyEvropa badiiy oqimining shakllanishiga ham o`zining ta`siri tekkazdi. Yangi oqim frantsuz arxeologlarining tashabbusi bilan «roman oqimi» nomini oldi. O`zining nomini yangi oqim shu vaqtlari til bilish ilmiga kiritilgan «roman tillari» terminiga o`xshashlik bo`yicha oldi. Roman (lot. Roma – Rim so`zidan) oqimli antiklikdan keyingi G`arbiy va Markaziy Evropa davlatlarida monumental rangtasviri va haykaltaroshligi, arxitekturani va dekorativ amaliy badiiy san`atni butun birlikga birlashtirgan birinchi yirik badiiy oqim bo`ldi. Odatda XI asrda «ilk», balki XII asr – «to`liq shakllangan» roman badiiy san`ati davri deb hisoblanadi. Biroq ayrim davlatlardagi va viloyatlardagi roman oqimining ustunligining xronologik chegaralari hamisha ham birday emas. [II.4,11-23]

XI-XIII asrlardagi ziyortgoh va qalqonlilar yurishlari faqatgina Evropa iqtisodiyoti a savdosining emas, balki madaniyati va badiiy san`atining rivojlanishida ham belgili rol` o`ynaydi, Arab Sharqining madaniyati bilan tanishtirib, ularni boyitdi. Monastirlar yo`llarni, ko`priklarni, mehmonxonalarni, gospitalarni qurishni kuchaytirdi. Monastir`, balki keyin fuqarolik hunarmandlari bir shahardan ikkinchi shaharga, bir abbatlikdan ikkinchi abbatlikga o`tib, o`zlarining ish tajribalari va o`z dasturlarini olib keldi va shu orqali mahalliy xususiyatlarini saqlab, birdan bir oqim yaratish uchun asos yaratdi. Bir qancha butun roman badiiy sistemasining paydo bo`lishi unga zamondosh dunyo tartibini uning shakllangan ko`rinishlarida va shakllarida ifodalanishiga imkoniyat yaratdi. Biroq X asr XII asrning birinchi yarmidagi g`arb dunyosi, asosan vasalik – lenlik munosabatlar va korporativlik aloqalar tashkil etgan bir qancha ichki tuzilishga qaramasdan, uni Vizantiyanikiga o`xshagan mustahkam bir universal formula

bilan ko`rsatish mumkin bo`lishi uchun juda har xil, qarama-qarshilikli, tashqi ko`rinishi o`zgaruvchan edi. Evropada markazga tortuchi va markazdan qochuvchi kuchlar uzluksiz bir birigi to`qnashdi, imperiya qudratlilik haqida orzu etgan german korollari va tovonlilik bilan teokratiyali g`oyalarini joriy qilishga intilgan Rim papalari tortishib keldi. Inestitura haqidagi tortish diniy va dunyoviy hokimchilikning musoboqalashishining yorqin misoli bo`ldi. X asrda Burgundiyadagi Klyuni monastirida o`tkazilgan islohot (qayta o`zgartirish) cherkovni mustahkamlash va birlashtirish g`oyasi bilan sug`orilgan edi. Imperatorlar bilan kurashdan cherkov markazlashgan, ko`p tomoni bo`yicha endi davlat g`amxo`rligidan mustaqil va faqatgina Rimning birinchi ruhlanishiga yo`naltirilgan tashkilot sifatida chiqdi. XI asrdan boshlab u o`zining ta`limotida ham siyosatida ham universal g`oyalarining asosiy tarqatuvchisi bo`lib oldi.

Cherkovning qudratining o`sishi uning Evropa jamiyatining ma`naviy hayotidagi diktaturasini (diktatura kuchgi suyangan va hech narsa bilan cheklanmagan hukumat) mustahkamlandi. Ta`lim sohasidagi monopoliyani saqlab o`trib, u madaniy rivojlanishning asoslarini o`z qo`lida ushladi. Roman davridagi madaniyatning asosiy markazlari va himoyachilari monastirlar, ozlab episkoplar shaharlari bo`ldi. Feodal jamiyatdagi cherkovning «muhit» sharoiti ruhoniylarning sifatiga ham ta`sir ko`rsatdi. U birgalikda emas edi: prelatlar feodallar sinfiga kiradigan edi, oddiy ruhoniylar xalq ommasiga qo`shildi. Cherkov qoidalari, o`zining asosini mustahkam saqlay o`tirib, yuqorgi oqsuyaklar guruhidava savodsiz dehqonlar orasida boshqacha tushunildi va tahlil qilinadi. «Xalqlik» ishonch hamisha ham boshqaruvchi sinflarning maqsadlariga to`g`ri kela bermaydi. O`rta asrlik ongi dunyoning shakllanib kelayotgan tuzilishini va dinamikasini faqatgina asta sekinlik bilangina anglay boshladi. Romanikaning paydo bo`lishi va shakllanishi davrida tafakkur hali qat`iyan aqlga muvofiqligi bilan ajralib turmaydigan edi: obro`ga suyanish va misol keltirishlar o`ylab ko`rishning o`rnini bosdi. Ko`z oldiga keltirish narsalik predmetlik sifatga ega bo`ldi. XIII asrning birinchi yarmida yashagan Gonoriy Avgustodunskiyning

«Dunyoning obrazi haqida» ilmiy mehnatida dunyoning tuzilishi haqidagi fikrlar muallifga belgili va boʻlgan va uning oʻzi etadigan geografik chegarasi – bu «uning tugʻilgan erining qoʻngʻiroqxonasidan koʻrinib turgan erlar» edi. Faqat investitura haqidagi bahsdagina gʻarbiy dunyosining ijtimoiy tafakkuri butung xristian dunyo haqida tushunchalarning mustahkamlanishiga sababchi boʻldi. Ochlik va kambagʻallik, feodal ezuvchilikning kuchayishi, moʻʻzija koʻrsatilishiga umid qilish va diniy koʻtarinkilik shu vaqtlardan qutilish yoʻlinigi izlab uzoq safarga chiqishga majburladi. XI asrdan boshlab feodal Evropaning hayotida ziyoratchilik alohida ahamiyatga ega boʻla boshladi va kelasi yuz yilikda avval koʻrilmagan darajada ahamiyatga tarqaldi. Biroq XI-XII asrlardagi Evropadagi borgan sayin tezlik qoʻzgʻalishlarni harakatga keltiruvchi sabab faqatgina bir dinchilik emas edi. Yirik quldorlikning oʻsishi sababli yuzaga kelgan, mayda va oʻrta ritsarlarning gadoylanishi, hunarmandchilikning qishloq xoʻjaligidan boʻlinib chiqishi askariy tavakalchilikni izlovchi, toʻnovchilik bilan shugʻullanuvchi ritsarlarni ham, monastir yoki feodar qoʻrgʻoni tomonidan ish topishga havas boʻlgan qochoq dehqonlarni ham, hunarmandlarni ham Evropa yoʻllariga chiqardi.

Evropada shaharlar paydo boʻla boshladi. Romanikaning rivojlanishida butun Evropa madaniyatining shakllanish davriga mos keliuvchi ikki bosqichni ajratib koʻrsatishga boʻladi. Birinchisi (X asrning ikkinchi yarmi – XI asrning oʻrtalari) – bilimlarni jamlash, ularni sistemalashtirish yoʻlidagi dastlabki harakatlar, izlanishlar vaqtlari boʻldi. Haqiqiy odamga xos xossalarga qiziquvchanlik uygʻondi. Poeziyada qadimgi insonlarni lirik motivlar, aql-nasirhatli soʻzlar, toʻliqindantiradi. Kliriklar (ruhoniylar) malakali shoirlar boʻla boshladi, kezib yuruvchi goliardlar (vagantlar) xavfli hislarni uygʻotuvchi hayotni maqtab taʼrifladi va cherkovning dindor ruhoniylariga qarshi turdi. Tasvirlash sanʼati insonning ish-harakatlarining maʼnosiga va sifatiga nazar qaratdi, arxitektura qurilish materiallarining xossalarni bilib oldi, eng etuk konstruktsiyalradi va loyihalashtirishning qulayli usullarini izladi. [II.21,23-32]

To'liq shakllanish davri XI asrning ikkinchi yarmida boshlandi va XII asrning ko'pchilik qismini o'z ichiga oldi. Bu Evropaning ma'naviyat madaniyatidagi chuqur izlanishlar davri. Xalq tillaridagi yozma adabiyot tan olindi. XI va XII asrlar o'rta asrlik dostonlarning (eposlarning), qahramonlik haqidagi qo'shiqlarning, saga (saga – qadimgi skandinav va qadimgi irland prozasining janri va afsonalarning dastlabki yozib olinishlari amalga oshirildi. «Roland haqida qo'shik» (taxminan 1100 y.) va «Sid haqida qo'shiq» (1145 y.) Evropa madaniyatining osmonni yarqiratdi. Provansal janubida yarqirab chiqib, ular keyinchalik tumanli shimolda ham, Germaniyaning sharqida ham o'z tarafdorlarini topdi.

XI asrning ikkinchi yarmida Evropada sxolastika shakllandi «avtoritar din ta'limoti dialektik ta'lim bilan almashtirildi». XI va XII asrlar davomida Ansel'm Kenterberiskiy odam hayotining yangi qirini tushunib oldi. Ansel'm uchun aql-o'y va ishonch bir-biriga qarama-qarshi emas edi. Uning «tushunish uchun ishonaman» degan so'zi Tertullianning «ishonaman, sababi bu bemanilik» degan so'ziga qarshi qo'yilgan edi. Ansel'm Kenterberiskiyning ma'naviy meditatsiyalarida dunyo, uni tushunishga yakka o'zining ma'naviy tajribasi imkoniyat bergan, uyg'unlikga to'la bo'lib ko'rinadi. Odamning ichki dunyosi borgan sayin ko'proq diqqatni o'ziga torta boshladi. Dinchilikning qiziquvchan himoyachisi sifatida atog'i chiqqan Bernard Klervosskiy (1091-1153 yy.) o'zining o'git-nasihatlarini tinglovchilarni qo'rqitishga emas, balki ularning yuragining to'riga ta'sir etishga intilib, ko'tarinki va alangali til bilan yozdi.

Roman vaqtining badiiy san'ati qurshab turgan dunyoning umumiy qonuniyatlarini tushunishga ham, va shuningdek tarixning olg'a ilgarilovchi rivojlanishini ifodalashga ham intildi.

Bo'lingan Evropada chegaralari hamisha ham feodal egaliklarining chegaralari bilan birday bo'lmagan ko'p sonli maktablarning bor bo'lishi roman badiiy san'atining ko'rinishini bir qancha shubarlandirib ko'rsatadi. Biroq roman

badiiy sintezining asosini tashkil qiluvchi bir qator sharoitlarni ajratib ko'rsatishga bo'ladi.

G'arbda keng tarqalgan bazilika turidagi cherkovlar butun devor rasmi (rospisni) tutashi bilan, bir qaragandan qamrab olishga imkoniyat bermadi. Shuningdek dastur tuzuvchilar va rangtasvirchilar ularni xosiyatli matnlarning o'rta asrlik tipologiyasi va pog'onalarni aylanib o'tishni ham o'z ichiga oladigan, inter'er bo'ylab altarga va aksincha yo'naltirilgan murakkab harakat sababli kelib chiqadigan ketma-ketlikda joylashtirib, tarixiy plandagi bibliya syujetlarni afzal ko'rdi. Syujetlarni tanlab olish va joylashtirishda qat'iy belgilangan qoida yo'q edi – haqiqatda roman cherkovining devor rasmlari bo'yicha faqatgina umumiy yo'nalishlar haqida aytishga bo'ladi. Asosiy diqqat markaziy apsidaning rospisiga qaratildi. Bu erda odatda shuhratga erishgan Xristos (Iso payg'ambar), yakka siyrak – Xudo onasi (Havo ona yoki Bibi Mar'yam) rasmi joylashtirildi. Ularning ostiga farishtalar, apostollar (apostol – Xristosning shogirdlari va elchilari), avliyolar, allegoriyalar va personifikatsiyalar joylashtirildi. Gohida ayrim agiografik ko'rinishlar yozildi, ular yana ham kriptalarning rospislarining majburiy motivi bo'ldi. Cherkovning g'arbiy devorida, agar ularda emporalar bo'lmasa, Qo'rqinchli sud ko'rinishi paydo bo'ladi, biroq uni altar oldidagi tantanali arkada ham ko'rishga bo'ladigan edi. Pastki, tosh tirnoq (tsokol') bo'limida badiiy plitalar bo'ldi, unga gohida husnsiz va xayoliy figuralarning rasmlari joylashtirildi.

Roman davrining ahamiyatli farqi XI asrning ikkinchi yarmida haykaltaroshlik bezashning paydo bo'lishi va inter'erdagi diniy plastikaning rivojlanishi bo'ldi. Roman haykaltaroshlik asarlarini yaratishning ustunlik etuvchi turi rel'ef bo'ldi. Haykaltaroshlikning bu turining tasvirlash san'ati sistemasidagi – to'lig'i bilan tekislikga tegishli bo'lgan rangtasvir va aylana, fazoviylik haykal o'rtasidagi – oraliq o'rni uning roman badiiy san'atining vazifalarini bajarishiga juda yaxshi imkoniyat berdi: shu davr odamlarining ong-hisining konkretligini qanoatlandirish uchun etarli darajada bilinib turadigan va

moddiy edi: ikkinchi tomondan tekislikdagi rasm sifatida u yalpoq bo'lishi ham mumkin edi, xristian tushunchalarga ega bo'lgan mo'jizali obrazni moddiylashtirishga intilishni qadimgi varvar dasturlarning chiziqli dekorativliligi bilan birlashtirishga imkoniyat berdi. Haqiqatda cherkov inter'erida turgan haykal siymolar – Xristosning qo'l-oyog'ini kerib mixlangan qalqonlar taxta o'irgan Madonna (Bibi Mar'yam) va avliyolarning tasvirlanishlari – erkin turgan haykallar emas, balki gorel'eflar edi.

Shunday qilib roman cherkovining ko'rinishi badiiy san'atning har xil turlarining o'zaro aloqasi va har xil ustalarning kuch solishlari va ijodkorlik intilishlarining yig'indisi sifatida yaratildi. Bir esdalikning chegarasida har xil badiiy hududlardan va maktablardan chiqqan, har xil dasturlarga suyanuvchi uy quruvchi ustalarning, haykaltaroshlarning va rangtasvirchilarning birga ishlashiga to'liq imkoniyat bor. Qurilish ishlarining uzoq vaqtga cho'zilishi va yo'llarning xavfsiz emasligi munosobatlarni qiyinlashtirgan bo'lsa ham XII asrga kelib Evropaning turli viloyatlari orasidagi aloqalar bir qancha jiyaklandi. Sayohat qilib yuruvchi qurilishchi yoki rangtasvirchi bu vaqtlari siyrak uchrashadigan figura emas edi. Bir erdagi ishni tugatib bo'lib, uy quruvchi usta va uning arteli, o'zining ko'nikmalarini va tajribasini yana yordamchilariga o'rgatib, shu kongregatsiyadagi boshqa monastirga ko'chib o'tdi. Biz Lombardiyali arxitektorlarni Germaniyada va Shvetsiyada uchratamiz, Angliyali rangtasvirchilar Ispaniyada ishladi, Janubiy Evropaga ustalar Vizantiyadan keladi, «Nemets erlaridan kelgan ustalar» Vladimir-Suzdal` Rusi cherkovlari ustida mehnat qildi. O'rta asrlar ustasi namunalar bo'yicha ishladi. Shuningdek u vaqtlari sayohat qilib yuruvchi ustalar bilan bir qatorda badiiy g'oyalarning ahamiyatli manbai, safar etib yuruvchi narsalar – kitoblar, zargarlik buyumlar, o'yma naqshli suyak, qimmatbaho gazlomalar bo'ldi. XIII asrning boshiga kelib gotikaning oldinda roman oqimi Evropa badiiy san'atidagi eski qarashdagi (konservatiklik) hodisa bo'lib qoldi. [II.41,36-42]

X ASR- XI ASRNING BIRINCHI YARMIDAGI G'ARBIY EVROPA BADIY SAN'ATI

Roman badiiy san'atining shakllanishi Evropaning turi qismlarida bir tekis bo'lib o'tmadi – tarixiy rivojlanishning davomining bir vaqtda emasligi o'zini ko'rsatdi. Badiiy ijodkorlikning har xil tomonlariga kuch solib, avvalga o'tgan zamonlarning turli tajribalariga suyangan, har qaysisi o'z maqsadiga erishish uchun o'z yo'li bilan yurgan bir necha regionlarni ajratib ko'rsatishga bo'ladi. Karolinglar davrining merosxo'rlari ko'p tomoni bo'yicha Angliya va Germaniyaning badiiy san'atining rivojlanishini belgilab berdi. X asrning ikkinchi yarmida Ottonlar tomonidan yangilangan imperiya yangi tug'ilib kelayotgan romanikaning ahamiyatli o'chog'i bo'ldi. uning yutuqlari birinchi navbatda tasvirlash san'atiga tegishli bo'ldi. Arxitekturada Evropaning janubiy viloyatlarining – Shimoliy Italiyaning, Ispaniyaning, Janubiy Frantsiyaning yutuqlari bir qancha ahamiyatliroq bo'ldi. Bu davrda Evropa badiiy san'atining rivojlanishiga Maas vodiysi, Shampan` va Shimoliy Frantsiya o'z hissalarini qo'shdi. Roman sintezining ahamiyatli markazi sifatida Burgundiya ajralib chiqdi.

IX asr oxiridan Angliyaning janubida madaniy hayotning jonlanishi boshlandi. Bu davrda, gullanishi Normandiya bosib olgancha davom etgan, Angliya kitob miniatyurasi bir qancha yutuklarga erishdi. [II.2,38-44]

Miniatyura san'atining rivojlanishida kontinent bilan davlat darajadagi va cherkovlar orasidagi aloqalar ahamiyatli rol` o'ynadi. Anglosakson ko'chirib yozuvchi kotiblari va rassomlarining ixtiyorida materikdan olib kelingan Karolinglik qo'lyozmalar bo'ldi. Eng katta yutuq – Reyms maktabi manuskriptlari, birinchi navbatda X asrdan boshlab Kenteberide saqlangan va tinchsiz ruhi Britniya ustalariga yoqib qolgan, «Utrext Psaltiri» ning namunasiga tekdi. Angliyada boy bezalgan qo'lyozmalarni chiqarishning asosiy markazi korollik markazi Vinchestr va uning N'yuministreskiy abbatligi bo'ldi. Angliya

miniatyuralarini uch guruhga bo'lishga bo'ladi: bo'yoqlar va oltin rang bilan bajarilgan rasmlari va manuskriptlar: pero bilan yumshoq ishlanib, gohida ozroq bo'yolgan rasmlar bilan illyustratsiyalangan kodekslar va yana ham ikki usulni birlashtirgan miniatyura. Vinchester maktabining ilk esdaligi – korol Edgarning N'yuministerskoy abbatligiga «Mukofotga bergan xartiya» si (966 y. London, Britaniya muzeyi). Bag'ishlash miniatyurasi korolning yoyilgan qo'llariga xartiyani ushlab Xristning oldinda turganini tasvirlaydi. Bu asarda Vinchester badiiy san'atining asosiy xususiyatlari belgili bo'ldi: ikki qavatli romani o'rab turgan, akant yaproqlaridan ishlangan chiroyli jiyak, mahorat bilan ishlangan rasm, kiyimlarning o'zgarish g'ichimlarining tinchsiz ritmi, ta'sirli jonlanishining alohida o'tkirligi. Erdagi hayot va ko'kdagi (osmondagi) ilohiy dunyo orasidagi oraliq korolning figurasidagi qalin bo'yoqlarning Xristos va avliyolarning obrazi bajarilgan, ozgina rang berilgan rasmga qarama-qarshi qo'yilishi bilan alohida ajratib ko'rsatilgan.

Vinchester badiiy san'atining asosiy asari – 971 va 984 yillar oralig'ida episkop Etel'val'd uchun bajarilgan «Benediktsional» (London, Britaniya muzeyi). U avliyolarning hayotidan olingan ko'rinishlardan, ularning «portretlaridan», injil matnlarining illyustratsiyalaridan iborat. Kompozitsiyalarning ko'pchiligi belgilangan qoidalarga ega emas va taxminan miniatyuralarning mualliflari tomonidan o'ylab topilgan bo'lsa kerak. Syujet rasmlar harakatchan namunada tahlil qilingan, qatnashuvchilar qiziqarli va yuz berayotgan voqealarga faollik bilan qatnashadi, akantli naqshlar kompozitsiyaning umumiy tuzilishiga kiritilgan. Anglosakson bo'yolgan miniatyurasining rivojlanishining so'ngi bosqichi «Robert J'yumejinning missali» (1006 va 1023 yillar davomida) bilan ko'rsatiladi. Ruan kodeksi-jiyak va kompozitsiya birdan bir ritm va ta'siri jonlash bilan birlashtirilgan anglosakson maktabining eng mohir asarlarining biri.

Badiiy dunyo qarashdagi ahamiyatli o'lga siljishlar XI asrning boshida yuz berdi. Anglosakson ustalari tinchsiz atmosferaga tartiblashtiruvchi asoslarni kirita

boshladi: figuralar bir qancha qo'zg'alishsiz, voqeaning rivojlanishida uzilishlar paydo bo'ladi va shuning orqasida ta'sirli pozalar, tana harakatlari, yuz harakati bir qancha sezilarli bo'ladi. Shunga bog'liq «Ramzidagi abbatli Psaltiri» ning (X asrning so'ngi choragi, London, Britaniya muzeyi) qalqonning rasmi solingan qog'ozi qiziqarli. Bu erda endi Evropa romanikasining eng yaxshi asarlarini ajratib ko'rsatadigan hislarining boyligi ko'rinadi.

XI asrda grafik oqim VII asrda yashagan Nortumbiyali monax Kedmonning «Haqiqat kitobi» ga qo'shiq bilan berilgan tushuntirishlarning qo'lyozmasida (XI asrning ikkinchi choragi, Oksford, Bodli kutubxonasi) va «Koton Psaltiri» da (taxminan 1050 y., London, Britaniya muzeyi) to'liq darajada ochildi. Kotton qo'lyozmasi oqimlik qarashdan qaraganda, endi Angliya grafik miniatyurasining so'ngi davri bo'lib hisoblanadi. Bu erda qizil chiziq bilan ozroq bo'yolgan qizil kontur ustunlik etadi. Sirtidan qaragandagi barcha harakatchanligiga qaramasdan rasmdan kiyimlarning g'ijimlariga deyarli naqshli sifat beradigan yasalma o'zgaruchanlik va salqinlik bor.

Vinchester maktabi dasturlarining va grafik illyustratsiya printsiplarining birlashtirilishini – konturni alohida ajratib ko'rsatib aylantirib chizib chiqish, gruntni bilan to'ltirish, ko'rinishlarining yig'ilganligini – Britaniya muzeyida ko'rgazmaga qo'yilgan XI asrning bir qator yozmalarida – «Glossed Psaltiri», «Tropar» va h. – ko'rishga bo'ladi. Ilk feodal Germaniya davlatining birtola shakllanishi XI asrning boshiga, korol' hukumatining mustahkamlanishi uchun zarur bo'lgan asoslar yaratilgan vaqtga tegishli. Uning mustahkamlanishining zarurligi bir tomondan Germaniyadagi feodallashtirishning tugatilmaganligi va astalik bilan amalga oshirilayotganligi, ikkinchi tomondan – normanlar va ko'chmanchi vengerlar tomonidan tug'ilgan tashqi xavfdan kelib chiqdi. Bo'lingan Evropa sharoitida Germaniyaning kuchayishi uning hukmdorlariga sirtidan yangi territoriyalarni osib olish imkoniyatini berdi. Bu siyosat Rim imperiyasini qayta tiklash g'oyasining ostiga yashirindi. Otton I ga 962 yili Rimda toj kiydirilishi korolning xalqaro obro'sini ko'tardi. Biroq jahon

mustaqillikka intilish tarixning olg`a qarab ilgarilash borishiga qarshi turdi va o`rta asrlik Germaniyaning taqdiri uchun foydasiz bo`ldi.

Ottoning vaqtidagi imperiyaning rivojlanishi nemets romanikasining ilk bosqichi bo`lgan badiiy san`atning gullab yashnashi bilan birga yurdi.

Imperiyaga harakat qilish, o`tmishga nazar solishga va Vizantiyaga diqqat qaratishga majburladi. O`zining ijodiga suyanchi nemets ustalari birinchi navbatda Karolinglar badiiy san`atidan izladi. Axenedagi, Ful`dedagi va Sen Rik`edagi qurishlar Essendagi, Ottmarsxeymdagi, Reyxenau oroliagi, Mayntsdagi va Xil`desxeymdagi arxitektorlarni ruhlantirdi. Karoling qo`lyozmalari va fil suyagidan ishlangan plastinkalari X asrning oxirida taqlid qiluvchilarni paydo etdi. Otton davrida etakchi o`rinni Saksoniyaning qurilish maktabi egalladi. Eng ertadagi qurilishlar Kvedlinburgda (Germaniya) saqlanib qolgan Sankt-Servatsius monastir cherkovi (X asr) va «Vipert kriptasi» (taxminan 961 y.) deb atalgani. Keyingisi unda roman qurilishlarining ahamiyatli boshlang`ich belgilarining: aylanma yo`lning va navbatlashib kelgan tirkaklarning – bor ekanligi bilan diqqatga loyiq. [II.16,22-31]

X asrdagi imoratlardan eng yaxshi saqlangan holid Gernroddagi Sankt Tsiriakus cherkovi (Germaniya, X asrning so`ngi uchdan biri) etib kelgan. U XII asrda, g`arbiy apsidasi paydo bo`lgan vaqtlari, biroz o`zgarishga uchradi. Gernroddagi, o`ralar bilan bir tekis yalpoq qilib bostirilgan, sharq tomonida uch apsidasi bor T-ko`rinishli bazilika emporaga ega. Gernroddagi cherkovning inter`eridagi asosiy ritm motiv tirkaklarining navbatlashib kelibi bo`ldi. U plandagi simmetriyaning boshlangan erini alohida ajratib ko`rsatadi: taxminan ikki tomonlama yo`naltirish avvaldan nazarda tutilgan bo`lsa kerak. Germaniya arxitekturasining ilk bosqichidagi izlanishlarning yakunini chiqaruvchi qurilish Xil`desxeymdagi Sankt Mixael` cherkovi (taxminan 1010-1033 yy.) bo`ldi. Cherkov ikki tomonlama yo`naltirishga, simmetriyali joylashgan transeptlarga va minoralarga, portallar va derazalarga ega. Cherkovning naqsh tomonini uch apsida, g`arbiy tomonini – aylanma yo`li bor kripda yakunlaydi. Imoratning

qurilishidagi proportsiyalarning to`g`riligi, aniq kompozitsiyasi, hajmlarning mosligining aqllik bilan ishlanganligi odamni hayron qoldiradi. Arxitektura o`lchamlarning birdan bir modulini topishga intilish aniq seziladi. Uning echimi loyihasining asosiy murakkab bo`laklaridagina o`zgartirilib va takrorlanadigan, qalqon o`rtasidagi kvadrat bo`lib topiladi.

Germaniyaning g`arbiy viloyatlarining arxitekturasi XI asrning bo`sag`asida ahamiyatga ega bo`la boshladi. Kyol`nda taxminan 1000 yili massalarining uyg`unlashtirilishi etishgan romanikaga yo`l boshlagan paskaltak sharq transept iva tantanali vestverki bor bir nefli imorat – Sankt Pantelon cherkovining qurilishi tugatildi. Keyingi vaqtlarning arxtektorlari uchun namuna bo`lib xizmat etgan Kyol`ning ikkinchi qurilishi – Sankt Mariya in Kapitol`. Uning sharq bo`limi 1065 yili uch yaproq ko`rinishga ega bo`ldi. Qalqon o`rtasining kvadratini uch tomonidan uch konxoa yarim aylanalari qurshab turdi, to`rtinchi tomoniga uzuniga cho`zilgan nef tegib turdi.

Vestfaliyada XI asrda grek ustalari tomonidan, yaxshi saqlanib qolgan, Paderborndagi Sankt Bartolemeus kapellasi qurilgan edi. U nozik tirgaklarga o`rnatilgan gumbaz bilan bostirilgan va birday balandlikdagi neflarga – shu tumandagi «zalli» fazoviylikning birinchi namunasi ega.

Nemets arxitekturasi yangi hajmini Limburgen – Xardtdagi cherkov (1025 yildan keyin) va birinchi imoratning qurilishi 1030 yili boshlangan Shpeyerdagi katta cherkov berdi. Uning tantanali hajmi imperator obro`sini mustahkamlanishi lozim edi.

Otton zamonining tasvirlash kitob miniatyurasida bir qancha yorqinroq ko`rindi. Bag`ishlov qog`ozlari isbotlab turganiday, boy bezalgan kitob shu vaqtlari birinchi darajali va diniy sovg`a bo`lib hisoblanadi. Yarqiratib bezalgan qo`lyozmalarning buyurtmachilari imperatorlar edi, biroq ko`pincha prelatlar ham (ruhoniylar) buyurtmachi bo`ldi. Ko`pincha ahamiyatli diniy tekstlar, diniy marosimning bajarilish turi, oy iva sanalari bo`yicha bo`lingan liturgiya (liturgiya-diniy marosimlarni o`tkazish qoidasi) kitoblar – Injillar,

Sakramentariylar, Lektsionariylar va shuningdek Psaltirlar tuzildi va ko`chirib yozildi. Miniaturachilar keng hajmli hikoya etuvchi tsikllarga va tantanali kompozitsiyalarga havas bo`ldi.

Otton badiiy san`atining diqqat markazida odam figurali turdi, peyzaj bir necha simvol rasmlardan iborat bo`ldi yoki birato`la yo`q bo`lib, uni neytral, gohida oltin fon bilan almashtirdi. Illyustratsiyalarga kitoblarda o`z oldiga betlar ajratildi, naqshli shakllar initsiallarga jamlana boshladi. Miniaturalarning kompozitsiyasi sipoyi turga ega bo`ldi: birinchilik rol` konturga tegishli bo`ldi, ichki rasm ayrim olingan shakllarni tasvirlamadi, faqatgina belgilab o`tdi, ularning har biri uchun shartli belgilar sistemasi ishlab chiqarila boshladi. Rerezentativ miniaturalarda bez harakatining va tana harakatining (qo`l siltashlar, boshning harakatlari va h.) ta`sirchanligi kuchaydi, qog`oz yuzasining qatnashuvchi odamlarni bo`lib turuvchi fazoviylik keskinlikga ega bo`ldi.

Otton miniaturasi oqimining tozalanishi Beden dengizdagi Reyxenau monastirining skriptoriyining xizmatlari bilan bog`liq bo`ldi. Eng so`nggi tadqiqotchilar u erda arxiepiskop, korolning kantsleri Egbert (977-983 yy.) badiiy bezalgan qo`lyozmalarning asosiy buyurtmachisi bo`lgan, monastir reformasi ahamiyatli markazi, episkop shahari Trirning ham katta rol` o`ynaganligi haqida o`ylashga imkoniyat berdi. Shu yirik miniatura maktablari bilan bir qatorda Ful`dedagi, Korveydagi, Xil`desxeymdagi, Kyol`ndagi, Regenburgdagi, Externaxtagi (Lyusemburg) skriptoriylarda ham faollik bilan ishladi. [II.30,21-29]

X asrdagi ikki yirik nemets miniaturasi maktabini, Reynexau va Trirdini bog`lovchi qo`lyozma – «Egbert Kodeksi» (taxminan 980 y., Trir, Shaharlik kutubxona). Kitobda Reynenaudan chiqqan monaxlar Keral`d va Geriberdning qadimgi qo`lyozmasini Egerertga topshirishi ko`rinishi tasvirlangan. Qo`lyozmani bezash ustida uchovdan oz bo`lmagan rangtasvirchilar ishlagan bo`lib, ularning orasida yorqin farqiga ega usta bo`lgan. Unga Trir maktabining yuzini belgilab nasib etdi. Fanda u «Avliyo Grigoriy registri» ning (papa

«Buyuk» Grigoriyning xatlarining to'plamining, taxminan 983 y.) ijodkori nomi bilan belgili. Hozirgi vaqtda bu kadimgi qo'lyozmaning lavhalari Trir va Shantiyedagi (Frantsiya) Konde muzeylari orasida bo'linib chiqqan. Bu kodeksning katta ikki miniatyurasi Bibliyadan olingan lavhani (tsitatani) kotibga aytib yozdirayotgan papa Grigoriy va taxtda o'tirgan Otton II (Otton III ?) tasvirlaydi. «Avliyo Grigoriy geristri» ning ijodkorining ijodi Otton badiiy san'atining rivojlanish yo'lining hal qiluvchi davri bo'ldi. Uning asarlari chin yurakliligi, savodliligi va klassik salmoqliligi bilan o'ziga tortadi. Kompozitsiyalarning ritmlari bir tekis ko'tarinki va tantanali. Tiniq rasm yumshoq rel'efli modellashtirish bilan uyg'unlanib turibdi. Usta arxitektura fonlardan qochmaydi, biroq miniatyuralarning fazoviyligi oddiylashtirilgan va ularda miniatyurachi figuralarni va narsalarni mahorat bilan joylashtiradigan, ayrim «qatlamlarga» bo'lingan. «Avliyo Grigoriy registri» ning yaratuvchisining ijodkorligining ta'siri Externax va Kyol'n qadimgi qo'lyozmalarida, shuningdek fil suyagidan ishlangan ishlarida seziladi. 993 yildan keyin birinchilik to'lig'i bilan Reynenauga o'tdi. Bu vaqtlar otton miniatyurasining ahamiyatli asari – Otton III ga Injilni mukofotga bergan donatorning nomi bo'yicha shartli turda «Liutara guruhi» deb atalgan qo'lyozmalar to'plami (taxminan 990 y., Axene, katta cherkov xazinaxonasi) yaratildi. Bu qo'lyozmalarda, endi qiyin belgili mazmuni ketma-ketlik bayon qiluvchilik, ko'rgazmali aytib berish yo'li bilan ko'rsatishga va shuning bilan bir vaqtda bu hikoya qilishga ta'sirchanlik, jo'shqinlik va tomoshago'ylik belgilarini kiritishga intilishini ko'rishga bo'ladi. bu guruhdagi qo'lyozmalar o'zining eng baland cho'qqisiga Otton III va Genrix II ning nomlari bilan bog'liq esdaliklarda erishdi. «Otton III ning Injili» dagi (taxminan 990 y., Myunxen, Bavariya davlat kutubxonasi) – injilchilar alanganli payg'ambarlar, olamning sirlarini ochuvchilar, dinni va cherkovni qo'llab quvvatlovchi atoqli odamlar. Injilchi Luka keng ochilgan ko'zlari bilan dunyoga tiqilib qarab turibdi va farishtalar bilan payg'ambarlar uchun yurgan osmon gumbazini yuqori ko'tarilgan qo'llarida ushlab turibdi. Ularning orasida

Lukaning somvoli bo'lgan qanotli ho'kiz uchib yuribdi va qo'lga o'ralgan qog'oz ushlagan xudoning o'zi yuqori ko'tarilib turibdi. Injilchini mandoralning ifodasi o'rab turibdi, raduga (kunning qilishi) mandoralning dumi kabi bo'lib ko'rinadi. Ikki qo'zi uning oyog'ining qoshida mangulik hayot bulog'idavn suv ichmoqda. Otton davrining miniatyurasining sh dasturi dogmatik (dogma-haqiqat deb qabul qilingan va tanqidlashga bo'lmaydigan ta'limot) ma'nosiga ega bo'libgina qolmadi, ular shu vaqtlardagi siyosiy hayot muammolarini ham o'z ichiga oldi. Bu vazifani birinchi navbatda imperatorlarning portretlari bajardi. Avval atab o'tilgan, Shantiy'ya qo'lyozmasidagi Otton II ning rasmidan tashqari Otton III ning bir necha rasmlari belgili. Bu, Rim imperiyasini qayta tiklashni orzu etgan, Vizantiya etiketining qiziquvchisi gohida o'z qaramog'idagi erlarning ta'zim qilishini qabul qilib, tantanali chordoq ostida o'tirdi («Otton III ning Injili», Myunxen), gohida mandoral bilan qurshalib, ierarxiyali bosqichning eng yuqorisida ko'tarilib va olam hukmdoriga tenglashtirildi (Axenedagi «Otton III ning injili»).

Genrix II ning buyurtmasi bo'yicha yaratilgan qo'lyozmalarda biz bir qancha boshqacha yo'alishni topamiz. Bu erda Otton badiiy san'atining boshqa tomoni – bir qancha oddiy, biroq ta'sirliligi kuchli nasihatchilik olg'a chiqadi, Genrix II ning «Injil o'qish kitobi»da (1007 va 1012 yillar davomida, Myunxen, Bavariya davlat kutubxonasi) Yangi vasiyatning asosiy voqealari miniatyurachi tomonidan salmoqli nasihatchilik bilan ko'rsatilgan. Ilohiy ishonchning kuchi jadal, biroq ma'nosi bo'yicha oq ko'ngilli va chin yurakdan chiqqan qo'l siltashlar bilan ajratib ko'rsatiladi. Shuning bilan bira, bu erda kompozitsion pauzalar (uzilishlar) alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Qog'ozning bo'sh maydonlari ko'zga ko'rinmaydigan ma'naviy aloqalarga to'ldirilganday bo'ladi, qatnashuvchilar orasida qizg'in ta'sirchanlik hukm suradi. Yana ham Genrix II ning buyurtmasi bo'yicha yaratilgan «Bamterg Apokalipsisi» miniatyuralarida (1020 yilgacha, Bamberg shahari, Davlat kutubxona) xavotirli, xayoliy, so'zsiz bo'ladigan chorasizlik mavzusi seziladi.

Nemets miniatyurasi tarixining yangi varaqlari XI asrning birinchi uchdan biri davomida yozilgan edi. Bundan oldingi yuz yillikning oxiriga kelib yangi markazlar – Externax, Kyol'n, Regensburn – bir qancha katta rol o'ynay boshladi. Ularda ustalar o'zicha tushungan Vizantiya elementlarining ta'siri kuchaydi. Externaxta imperatorlarning buyurtmasi bo'yicha miniatyuralar o'ta to'kmalik bilan, juda boy bezalgan katta, qalin kitoblar yaratildi. Regensburgda naqshli fonlarni va tantanali toj kiyidirish ko'rinishlarini yoqtiradigan edi. Aksincha Kyol'n qo'lyozmalari o'lchamlari bo'yicha katta emas. Kyol'n rangtasvirchilarni Vizantiya namunalardagi ma'naviy chigallashganlik emas, balki figuralarning turlari, go'zalligi, kolorist to'yg'inligi ko'proq o'ziga tortdi. Kyol'n faqatgina miniatyuralari bilan emas, balki zargarlik buyumlari bilan ham belgili edi. Bu, qimmatbaho toshlar va emal bilan bezalgan, ko'tarib yuradigan qalqonlar. Otton haykaltaroshligi hali ham xosiyatli narsaning qimmatbaholi jiyaklanishi va rasmning o'zi orasida ikkilanib turdi. Qalqonning, taxtda o'tirgan Madonnaning va aliyolarning haykaltaroshlik siymolari g'arbiy badiiy san'atining Otton davrida rivojlangan yangi mavzulari edi. Essen cherkovidagi «Oltin Xudo Ona» (taxminan 980 y.) o'zining bajarilish usuli bo'yicha – yog'och o'zakning sirtidan qoplangan taxta oltin –Konkadagi avliyo Veraning karolinglik haykaliga yaqin. Biroq obrazning tushunilishi ikki sharoitda ham har xil. Agar avliyo Veraning haykalida jonsiz narsaga sig'inuvchilik (fetishizm) – beparvolik asos kuchliroq seziladigan bo'lsa, unda Essen Madonnasida tomoshabinga qaratilgan obrazning kuchli ta'sirchanligi aniq ko'rinadi.

Otton davri sirtidan olingan badiiy ergashtiruvchi kuchlarni o'zicha qayta ishlab chiqdi. Bazel' cherkovidan olingan altarning (antependiyning) (1019 yilgacha, Parij, Klyuni muzeyi) oltin qoplamasi Vizantiyalik namunalardan ruhlangan, biroq Bazel' antependiyining ruhlanuvchiligi Vizantiyadagiga taqqoslaganda boshqacha ma'noga ega. Shakllarning va tashqi yuzalarning o'zgarishi oltinning beparvo-barqaror emas yaltirashini paydo etadi; nazari qotib

qolgan, o'z o'ylariga cho'mgan – qayg'uli yuz ko'rinishlari dunyoni qayg'uli qarama-qarshilikli uqtirishni ko'rsatadi.

X-XI asrning birinchi yarmidagi nemets haykaltaroshligida odam hislarining va uning ishlagan ishlarining dramasi oldingi o'ringa chiqadi. Ustalar gunohga botish ko'rinishlarini, qalqonli yo'l (ya'ni azoblanish orqali gunohdan poklanish) va qalqonga tortilishi, o'lgan odamga aza tutishni tasvirlashni yoqtiradi. Miniaturaga qaraganda haykaltaroshlik ko'proq darajada keng tomoshabinlar qatlamiga bag'ishlanadi. U o'git-nasihatlovchilik alangalilikka ega bo'ldi va ko'p odamlilik auditoriyaga qaratila o'tirib, uning qarashlarini, fikrini hisobga olmasligi mumkin emas edi. Plastika xalq ishonch belgilarini o'ziga singdirib oldi vash u vaqtdagi haykaltaroshlarning asarlaridagi o'ziga tortadigan, shu bir, o'tkir realizmi bilan ta'sir etdi. [II.31,44-54]

Nemets haykaltaroshligining ikki esdaligi: Kyol'ndagi «Gero qalqoni» va Xil'desxeymdagi Sankt Mixael' cherkovining (hozirgi vaqtda sobor) bronzadan ishlangan eshiklari – yangi davr bo'sag'asida turadi. Yog'ochdan ishlangan, bo'yolgan «Qalqon» Kyol'n arxiepiskopi Geroning buyurtmasi bo'yicha yaratilgan edi (taxminan 975 yu, Kyol'n sobor), Dindor arxiepiskop unda ilohiylashtirilgan (xosiyatli deb e'lon qilingan) qobiqni (oblatka) saqladi – shuningdek haykal rasm relikvarik (xosiyatli narsani saqlash o'rni) rolini ham bajardi. Kyol'nli ustaning ichida o'zgarish ham mumkin, shuningdek to'lqinlantiruvchi jonlilik ko'proq, O'layotgan odamning qayg'uli sharoiti jon topshirish oldidagi qiynalishning so'ngi sifatida tushuniladi. O'limning berilishining haqiqiyliги bo'yicha Kyol'n «Qalqoniga» teng keladiganlari oz uchrashadi.

Xil'desxeymdagi bronza eshiklarining (1015 y, Xil'desxeym, sobor) yaratilishi, Otton davrining yorqin, ajoyib odami, episkop Bernvard bilan bog'liq. U o'zining atroiga talantli odamlarni yig'adi, biroq uning o'zi ham badiiy san'at bilan shug'ullanishni yomon ko'rmaydigan edi. Xil'desxeymdagi ustaxona o'zining bronzadan ishlangan buyumlari bilan shuhrat tarqatdi. Atab o'tilgan

eshiklardan tashqari, bu erda taxminan Bernvardni u Italiyada bo`lgan vaqtlari hayron qoldirgan, Rimdagi Trayan sutiniga taqlid qilib ishlangan quyma monumental sutin qurildi. U yangi vaziyat voqealari vav Xristning ko`rsatgan mo`jizalari tasvirlangan rel`eflarning eshilma sim tarzli lentasi bilan bezalgan. [II.51,11-18]

Sankt Mixael` cherkovi eshiklari (ular Xil`desxeym soboriga keyinroq ko`chirilgan) ustida ikki haykaltarosh ishlagan deb hisoblanadi. Xil`desxeym eshiklarida, Eski va Yangi vasiyatlarning xosiyatli matnlaridan bir-biriga o`xshashlikni izlab topishga intiluvchi o`rta asrlik tipologiyagap muvofiq ulardagi asosiy hodisalar tasvirlangan. Va shu qarashdan bull eshiklar – «o`qishni bilmaydiganlarga maxsus Bibliya» ning aniq misoli. Gunohga botish, qarindoshini o`ltirish va Xristning gunohdan qutulish vazifasi ko`rgazmali vasiyatchilik bilan tasvirlangan. Eski vasiyat ko`rinishlarida harakat ustunlik etadi; Bibliya tsiklidagi voqealar ko`tarinkilik va tantanalilik bilan tushuntirilgan. Voqea qatnashuvchilarining o`zaro munosabati ularning ishlagan ishlari bilan, insonning va xudoning ixtiyori bilan belgilanadi. Xil`desxeym eshiklaridagi juda shartli berilgan peyzaj elementlari bor neytral fonga yarmigacha kirib turgan, boshlari katta, oyoqlari va qo`llari mos emas darajada ingichka odam figuralari hayron qoladigan qo`zg`aluvchan va harakatchan.

XI asrning ikkinchi o`n yilligining o`rtasida nemets badiiy san`atida oqimning birligiga va monumentalligiga yo`naltirish borgan sari aniqroq seziladi boshladi. XI asrning ikkinchi yarmi Germaniyada to`liq shakllangan romanika belgisi ostida o`tadi. G`arbiy Evropaning janubida roman arxitekturasining shakllanishi ko`p tomonidan karoling qurilishchilarining ish tajribasidan mustaqil bo`lib o`tdi, bu erda mahalliy dasturlar katta rol` o`ynadi. X asrda birinchi planga Lombardiya va Ispaniya rahbarligidagi Italiya chiqdi, keyinroq ularga Janubiy Frantsiya qo`shildi. Lombardiya IX asrdan boshlab texnikaviy tomonidan Evropada bir qancha oldingi o`rinda edi, «Lombardiyali» degan so`zning o`zi mohir tosh o`ruvchi ustaning sinonimii edi. Lombardiyada «birinchi roman

oqimi» ning asosi solindi – devorning bir-biriga bogʻangan gʻishtlardan ishlangan tirnoq ishlanmaydigan, bir qolipdagi toshdan oʻrishga asoslangan yangi konstruktsiyasi ishlab chiqarildi, cherkovning altar boʻlimi, kripta va yon tomon neflari bostiriladigan gumbazlarni qurish texnikasi takomillashtirildi. Bora-bora qalqon oʻrtasidagi mustahkamlangan erga gumbaz qurish amaliyotga kiritildi. Lombardiya qurilishchilari yalpoq boʻlib chiqib turadigan erlardan – kontrforslardan, lopatkalardan, pilyastrlardan, arkaturali frizlardan iborat boʻlgan, biroq taʼsirli bezaklardan foydalanishni kiritdi. Bu elementlarning barchasi X-XI asrning boshida tarqoq foydalanildi va birdan bir hajmli-fazoviy kompozitsiyaga qoʻshilmadi.

Birinchi roman oqimi» ning esdaliklari Italiyaning shimolida, Milan va Verona atrofida toʻplanadi, ular liguriyada, Pʻemontda, Romanʼyada saqlanib qolgan. Cherkovlarning loyihalari oddiy, koʻpincha bu uch apsidali bazilikalar, transept uncha joriy qilinmagan, u past va kichkina yoki butunlay yoʻq. Yon tomon neflarda qalqon gumbazlar qoʻllanilgan. Ularning kiritilishi tirgaklarning murakkablashtirilishi bilan birga amlaga oshirilgan, ularga dunki va yarim sutin turidagi plastik ishlov berilgan. Imorat fazoviyligi ayrim boʻlaklarga ajratila boshladi. Liguriyadani Nolidagi San Paragario cherkovi shu vaqtlarga xos. U tekis, yalpoq bostirmali, qisqa markazli nefga ega, yon tomon neflar qalqon gumbazlar bilan traveylarga boʻlingan. Italiyaning shimolida roman arxitekturasi dastlabki davrini Komodagi, markaziy nefda mustahkam tirgaklarga ega boʻlgan va gumbazlar ayrim-ayrim qoʻllanilgan uzuniga choʻzilgan koʻrinishga ega besh nefli Sant Abbondio bazilikasi yakunladi.

Avval Ispan egaligining gʻarbiy qismining uy qurish ustachiligining rivojlanishi jadal boʻldi. Butun er Oʻrta dengizi hududi bilan munosabatlarni erotadan yoʻlga qoʻyiyu, u X asrda – yoq yuqori madaniyatli graflikga aylandi. Kataloniyaning badiiy sanʼati bilan X-XI asrlardagi Frantsuz Russilʼonining esdaliklari chambarchas bogʻliq. Kataloniyali uy quruvchi ustalar, ularning Ispaniyada boʻlganligi VIII asrdan boshlab tasdiqlangan, Italiyali

kasbdoshlarining darslarini o`zlashtirib oldi, arablar bosib olgan erlardan oldingi qurilish konstruksiyalarini olib kelgan xristian-mosarablarning qurilishlarini bildi.

X asrdan boshlab Katalloniya imoratlar butunlay tsilindr tarzli gumbazlar bilan bostirila boshladi, konstruksiyani kuchaytirish uchun podprujnyy arkalar (gumbaz osti fazoviyligining paruslari suyanib turadigan arkalar) kiritildi, inter`erlarga yarim sutinlar va pilyastrlar bilan ilov berildi. Bu xossalar, paruslarni suyab turuvchi arkalarni ushlab turuvchi sutinlarning ikki yarusi neflarning tantanali perspektivasini paydo etadigan, San Pedro de Rodadagi (1022 y. mo`jizali deb e`lon qiligan) cherkovda bir qancha yorqinroq ochiladi. Kataloniyali uy quruvchi ustalarning ish tajribasining yakunini Rippoledagi monastirning cherkovi (1020-1032 yy.) chiqardi. Qurilishchilar bu imoratda ilk xristian T-tarzli bazilika printsipini lombard va mosarab uy qurish ustachiligi usullari bilan birlashtirdi. Markaziy apsidaning yon tomonalirad kichik apsidalar, qalqon o`rtasi ustidagi sakkiz qirli minora, kampanila va fasaddagi kichik minora roman qurilishining ritmik tashkil qilishining ahamiyatli farqlarini belgilab berdi. Ispaniyaning shimoldagi xristian tumanlarining madaniyati IX-X asrlarda ko`proq darajada rivojlangan arab janubi bilan munosabatlari bilan belgilanadi. VIII va IX asrlardagi xristian qo`lyozmalarining bezaklari pero bilan bajarilgan va rang berilgan naqshli motivlar bilan cheklandi. X-yuz yillikda syujetli rasmlar paydo bo`ldi. «Leon Bibliyasi»da (920, Leon sobot kutubxonasi) naqshlar va odam figuralari ingichka kontur bilan aylantirib chizilgan yorqin rangli yo`laklar bilan yaratildi. Ular qog`ozning bo`sh maydonida ko`rinish bo`lib ajralb turadi. X asrdagi ispan miniatyurasining alohida bo`limini, 786 yili «Apokalipsisga tushunchalar» yozgan l`ebenli monax Beataning asarlariga illyustratsiyalar tashkil qiladi. Ularda rangtasvirning gilamdagiday yorqinligi bilan birga bayon qiluvchilik asoslar kuchaytirilgan: tushuntirishlarning oqimi qoldirmay aytib berishni talab etdi.

Roman badiiy san`atining, birinchi navbatda arxitekturasining shakllanishining borishi Frantsiyada ko`proq darajada ketma-ketlik bilan bo`lib o`tdi. 843 yilgi Verden shartnomasi bo`yicha bo`lib chiqqan G`arbiy Frank korolligi siyosiy va iktisodiy tomondan bir butunlikga ega emas edi; el etnikasi bo`yicha ham taqsimlangan edi; shimol va g`arbning rivojlanishi har xil yo`llar bilan bo`lib o`tdi. Shu sharoitlarda qo`lida qurilishga qobiliyatlilik jamlana boshlagan, Klyuni islohoti bilan birlashtirilgan, monastirlar madaniy va siyosiy hayotda ahamiyatli rol` o`ynay boshladi. Bu Frantsiyaning roman uy quruvchilik san`atidagi monastirlarning etakchi o`rnini oldin belgiladi. Monastirlar – va bunda Klyuni harakatining xizmati oz bo`lmadi – shuningdek ko`priklarni solishga, cherkov qo`ng`iroqxonalarini va monastir boshponalarining chegaralari bilan belgilangan eski yo`llarning qayta tiklanishiga va yangilarining solinishiga g`amxo`rlik etdi. [II.14,22-29]

Roman monastir cherkovining turi birdan shakllanmadi. Dastlabida yangilik faqatgina altar bo`limlarni tashkil qilishga tegishli bo`ldi. Avvalgi «benediktinlik loyiha» murakkablashga cherkov marosimlarining talablarini to`liq qanoatlanira olmadi va X asrning oxiridan boshlab aylanma yo`li va kapellalar qatori bor xor tomonidan qisib chiqarila boshladi. Shimoliy Frantsiyada va Shampan`da Karoling cherkovi turi X-IX asrning birinchi yarmida inter`erning vertikal bo`laklarga bo`linishining, imoratning umumiy ko`rinishining, shuningdek haykaltaroshlik bezashning ishlab chiqilishi hisobidan boyitildi. Xomaki bostirish tekis bo`lib qoldi. O`rta Frantsiyaning ertadagi esdaliklari qalqon o`rtasiga alohida fazoviylik bag`ishlaydigan transeptli, aylanma yo`li bor xorni o`z ichiga oladigan, yaxshi joriy qilingan ko`rinishga ega bo`ldi. Yon tomon neflarning ustiga emporalar joylashtirildi. Yaxshi saklangan holidagi bizgacha, 1004 yili qurib boshlangan, Sen-Benua-syur-Luardagi monastir cherkovining g`arbiy minorasi etib keldi. Minoraning qo`shimcha qo`yilgan yarim sutinlari bor tirgaklari kuchli plastikaliligi bilan ajralib turadi, oqimlashtirilgan korinf kapitellari syujetli rasmlarga ega.

To`g`risini aytanda Shimoliy Overnda, keyinchalik endi to`liq shakllangan romanikaga o`tishni bildirgan, «ziyoratchilik» deb atalgan cherkov turida amalga oshirilgan, imoratning konstruktivlik asosini uning loyihalashtirilishining foydalanishga ko`zlanishi bilan birlashtirishning dastlabki shartlari yaratildi. Frantsiyaning har xil badiiy izlarnishlar chatishgan va sintezga ega bo`lgan viloyati – Evropa yo`llarining kesishmasi, episkoplar egaliklarining qo`shilgan eri, Klyuni harakatining markazi-Burgundiya bo`ldi. Bu hududdagi ertadagi qurilishlar orasida Turnyudagi Sen Filiber cherkovi yaxshi saqlanib qolgan. G`arbiy fasadning (taxminan 970 y.) karolinglik vestverki haqidagi eshlashlarni saqlab qolgan shakli sharqdagi aylanma yo`li va radius bo`yicha joylashgan, to`g`ri burchakli, uch kapella bilan aloqada.

Dastlabki qadamlaridan yoq o`ziga xos farqga ega bo`lgan Normandiya arxitektura maktabining paydo bo`lishi XI asrning boshiga tegishli. Klyunishilar va Shimoliy Frantsiya qurilishchilarining arxitektura g`oyalari bilan tanish bo`lgan Normandiya uy quruvchi ustalari, degan bilan gumbazli konstruktsiyalarga ishonchsizlik bilan qaradi va uzoq vaqtgacha joylarni yog`och bir bostirishni afzal ko`rdi: shimolning quyoshi uncha yorug` emas edi, shuningdek markaziy nefdagi derazalarning yuqorgi qatori kerakli edi. Qurilishda asosiy kuch imoratning massalarini tartiblashtirishga va ichki fazoviylikni ishlab chiqarishga qaratildi. Normandiyada ikki minorali fasadni (eng ertadagi namunasi – Jyum`ejdagi Sen P`er cherkovi, 954 y. – XI asrning birinchi choragi) afzal ko`rdi, bu erda ertadan tirkaklarni, arkalar qatorini va devorning bo`laklarga ajratilishini profillashtirish orqali arxitekturaning kuch chiziqlari ajratib ko`rsatila boshladi. [II.43,38-43]

FRANTSIYA BADIY SAN'ATI

Fransiya feodalizmning klassik davlati bo'ldi va o'rta asrlardagi G'arbiy Evropa madaniyati tarixidagi etakchi rol' unga tegishli bo'lmadi. Feodal Frantsiyada shu vaqtlar uchun oldingi filosofiya rivojlandi, ajoyib adabiyot, poeziya, kuy san'ati (musiqa), tasvirlash san'ati paydo bo'ldi. XI asrda o'rta asrlik eposning buyuk esdaligi «Roland haqida qo'shiq» yaratildi. Truverlarning lirik qo'shiqlari, ritsarli romanlar, o'tkir yumorga va xalq donoligiga to'la fabliyo-qissalar: atoqli «Tulki haqida roman», shuningdek dastlabki tarixiy xronikalar o'rta asrlar davridagi G'arbiy Evropa adabiyotidagi Frantsiyaning ustunligini belgilab berdi. [II.11,39-48]

Lekin uy quruvchi ustalar va rassomlarning yutuqlari alohida buyuk bo'ldi. XI-XIV asrlar davomida frantsuz xalqi arxitekturaning, haykaltaroshlikning, rangtasvirning va amaliy badiiy san'atning eng yaxshisi etuk asarlarini yaratdi. Arxitekturadagi konstruktiv shakllar va rejalashtirish echimlari bu davrda etuklikga erishda, cherkovlarning bezalishida rangtasvir bilan bir qatorda haykal bezashlar ham loyiq o'rin egalladi. Fransiya yuqorgi romanikasida badiiy san'atning Evropa maktablari orasidagi eng hajmli sintezi ishlab chiqarildi. Frantsiyaning uy qurish ustachiligidagi alohida hodisa – ziyoratchilik cherkovlari. Davlatning janubini va janubiy g'arbini ziyoratchilarning to'rt yo'li kesib o'tdi. Ularning barchasi Pireneyning orqa tomonidagi Sant'yago-de Kompostela monastirida to'qnashdi. Bu yo'llarning har birini katta to'rt sobor belgilab berdi: bul – Turdagi Sen Marten (taxminan 1056 y.), Limojdagi Sen Marsial' (1053/63-1066 yy., ikkisi ham buzib tashlangan), Konkadagi Sent Fua (1041/52- taxminan 1130 yy.), Tuluzadagi Sen Sernen (1075-1250 yy.). Bu turdagi imoratlarning loyihalashtirilishi diniy xosiyatli narsalarni ko'rish va ko'p sonli altarlar oldindagi marosimlarda qatnashishni xohlovchi ziyoratchilarning uzluksiz qatnashiga xizmat qilishdan kelib chiqqan edi. Cherkovlarning Konkadagi Sent Fuadan boshqalari uzuniga cho'zilgan neflarga va keng transeptlarga ega. Pastki

qavatining loyihasi bilan belgilangan to'xtovsiz aylanib o'tish yo'li, butun imoratni qamrab oladigan ikkinchi yarus galereyalari sathida takrorlanadi. Gumbazli bostirmalar sistemasi bir qancha aniq va konstruktiv bo'ldi. O'rtangi nef tsilindr kabi gumbaz bilan, balki yon tomondagilari – qalqon gumbaz bilan bostirildi. Og'ir markaziy gumbazning tirgaklarga tushadigan og'irlik kuchini kamaytirish zarurligi yuqorgi yarusning derazalaridan bosh tortishga majburladi, devorning bo'laklarga ajratilishi ikki bo'limli bo'lib qoldi. Markaziy nefdagi yorug'lik yorug'siz bo'ldi, u erga yorug'lik yarim aylana gumbazlar bilan bostirilgan galereyalar orqali tushdi. Joylarning bir qancha baland ekanligiga qaramasdan ziyoratchilarning yo'lidagi katta cherkovlar qat'iy quvvatliligi va fazoviyliklarning zichligi bilan ajraladi. To'liq shakllangan romanikaning belgilari Burgundiyaning, Normandiyaning, Akvitaniyaning va Provansning arxitekturasi va badiiy san'atida bir qancha yorqinroq ko'rindi. Burgundiyaning cherkovlari loyihalashtirilishining tushunarligi, imoratning tarkibidagi har bir bo'lagining aniq o'z oldiga bo'laklanib turishi bilan ajralib turadi. Roman cherkovining bu tuman uchun klassik bo'lgan kompozitsiyasi Neverdagi Sent Et'ening (1063-1097 yy.) quruvchilari tomonidan yaratildi. Cherkov cho'zilib yotgan lotin qalqoni ko'rinishiga ega, o'rtangi nef yon tomonidagilaridan baland va bo'laklarga bo'linishining uch yarusini o'z ichiga oladir: arkalar qatori ustida triforiy – yon tomon neflarning ustidagi tor, sirti yopiq galereya-joylashgan, undan yuqorida-derazalar. Barcha joylar gumbazlar-o'rtadagisi tsilindr turidagi, yon tomondagilari va xorning aylana aylanma yo'li usti qalqon gumbazlar bilan – bostirilgan, qalqon o'rtasini sakkiz bo'limli, tutashgan gumbaz yopib turibdi. Frantsuz romanikasining eng yuqorgi cho'qqisi klyuni abbatligining uchinchi cherkovining yaratilishi bo'ldi. Yangi, besh nefli cherkovni qurishdagi (qurilishning boshlanishi 1088 y.) asosiy maqsad – «Ikkinchi Rim» deb atalgan monastirga loyiq imorat yaratish edi. Cherkov o'zining o'lchyaamlari bilan hayron qoldiradi. Umumiy uzunligi 187 m., markaziy nefning kengligi – 11 m., balki gumbaz 30 m. dan ortiq balandlikga ko'tarilgan. Klyuni – 3 ning ichki

fazoviyligining ko`rinishi nefning butun balandligiga tortilgan yarim sutinlari bor murakkab yon tomon ko`rinishga ega tirovchi pog`onalar belgiladi, Paruslarni suyab turgan arkalarining tantanali ritmi triforiy arkturasi va qalqon o`rtalarining yorug`likli aktsenti bilan ajratib ko`rsatiladi. Bosh nefning arkalar qatori sachiq uchli ko`rinishga ega bo`ldi. arxitekturadagi ko`proq ruhlanganlik tushuncha berib, vertikal aktsentlar sezilarli rol` o`ynay boshladi. Klyuni cherkovining tashqi ko`rinishini qalqon o`rtasi ustidagi katta minora hajmi atrofiga to`plangan, balandligi har xil minoralar belgilab berdi. Klyuni – 3 ning kichiraytirilib qaytadan yaratilishi Pare-le Monial`dagi cherkov (taxminan 1100 y.) bo`ldi. Burgundiyaning ajoyib roman cherkovlarining biri Vezlede yaratilgan edi. Sent-Madlen monastirining cherkovi 1120-1150 yillari ziyoratchilik cherkovi sifatida paydo bo`ldi. Imorat bir qator texnik yangiliklariga ega. Markaziy nef paruslarni suyab turuvchi arkalar bilan kuchaytirilib, tekislikli qalqon gumbazlar bilan bostirilgan. Vezlede triforiylar yo`q, biroq paruslarni suyab turuvchi arkalarga suyab turgan tyagalar – va konstruktiv (ko`proq mustahkamlikga erishish uchun), va dekorativ (tegislikning xosma-xos bo`laklarga bo`linishi uchun) ahamiyatga ega bo`lgan devorning ingichka, chiqib turgan erlari) uch yarusli bo`laklardan iborat. Qizg`ish va sariq kvadratlardan o`rilgan tirgaklar va arkalar qatori inter`erda roman imoratining eng qat`iyan-antanali perspektivalarining birini ochadi. [II.38,78-84]

Burgundiya bilan tsistertsian ordenining xizmatlari bog`liq. Tsistertsianlarning qurilishlari XII asrga to`g`ri keldi. Yangi ordenning Ustaviy qat`iyan tartibi bilan, balki qarashlari – qat`iyan asketizmi (dunyoning rohatidan voz kechishi) bilan ajralib turadi. Tsistertsian monastirlaridagi joylar aniq ko`rinib turadigan, bajaradigan vazifasiga xosligi, konstruksiyalarning chuqur o`ylanib ishlanganligi va hech qanday bezaklarining yo`qligi bilan ajralib turadi: ularning chiroyliligi toshlarning juda yaxshi qalanishi, ko`rinishlari va chiziqlarining qat`iyat tartibliligida.

Overn cherkovi turi erta shakllandi. Overnning asosiy esdaliklari (Klermon-Ferrandagi Notr-Dam dyu Por, Orsivaldagi, Sen-Nekterdagi, Briuddagi cherkovlar) XII asrda yaratilgan edi; kelgusi yuz yillikning boshida ularga Issuardagi katta, Sen-Pol` cherkovi qo`shildi. Cherkovlarning barchasi bir-biriga yaqin qo`shnilikda, yonar tog` (vulqonli) jinslariga boy tog`li erlarda joylashgan. Bir necha turdagi qattiq, gungirt toshlarning xossalari Overn cherkovlarining hajmlarining aniqligiga va ko`rinishining sabrli, mutafakkir tantanaliligiga sababchi bo`ldi. Ularda, odatda g`arbiy tomondagi ko`riksiz bir yoki ikki minora bor va sharq tomoniga yaxshi ishlov berilgan. Butun kompozitsiyaning markaziy nuqtasi shu erga jamlangan, aylana va to`g`ri burchakli, vertikal bo`yicha piramida bo`ylab kichrayib borayotgan salmoqli ritm ustunlik qiladi. Ularni, o`zining yuqori ko`tarilishiga bo`sundira o`tirib, qalqon o`rtasi ustidagi sakkiz qirli minora birlashtiradi. Barcha tipologik o`xshashliklariga qaramasdan Overn ustalarining har bir imorati yakka o`ziga xoslikga ega. Overn uy quruvchi ustalari o`zlarining imoratlarini shu erning tog`li peyzajiga hayron qoladigan mohirlik bilan yarashganligini kirita olgan.

Provansal` madaniyatining rivojlanishi XI asrda boshlandi. Bu erdagi XII asrdagi shaharlarning gullanishi va ayniqsa qalqonlilar yurishlari davrida alohida kuchaygan Sharq bilan munosabatlar sababli mustahkamlangan, Provansal` boy bo`lgan, qadimgi dunyo meroslariga qaratdi. Bu tumanning arxitekturasining markazlari Avin`on va Arl` bo`ldi. Provansning cherkovlari oddiy. Bular asosan bir apsidali va baland joylashgan oz sonli derazalari bor, baland bir nefli joylar (Avin`ondagi Notr-Dam de Dom cherkovi, 1096 y.-XII asr; Oranjdagi cherkov, 1083-1126). Provansal` cherkovlarining tashqi ko`rinishi o`zlarining hajmlarining tiniq aniqligi bilan hayron qoldiradi. Inter`erlar gungurt va bezaklari yo`q. Tepalari tsilindr kabi yoki yarim aylana gumbazlar bilan bostirilgan, qalqon o`rtasi ustida aylana gumbaz bor. Keyingilari tromplarning ustiga qurilgan, arkalar va gumbazlar sachoq uchli ko`rinishga ega. Konstruktiv yangiliklar Provansal` uy quruvchi ustalarning kuchli tomoni emas edi, biroq tashqi

bezaklarda ular antik arxitekturaning tektonik qonuniyatlarini etuk tushunadiganligini ko`rsatdi. Arl`dagi Sen Trofim cherkovi (1152-1180 yy.) va Sen-Jil`-dyu-Gar abbatligi cherkovi (XII asr) – boy bezalgan haykaltaroshlik portallarining shimolida Provansning eng shuhrati chiqqan imoratlari. Aksincha, Ain`ndagi cherkov (1140-1160 yy.) va Monmajurdagi cherkov (1117-1155 yy.) tashqi ko`rinishining qat`iyatligi bilan ajralib turadi. Provansal` kluatrlarini alohida atab o`tish kerak. engil arkalar qatori bilan qursholgan, quyosh soyasiga ko`milgan ular dam olshga va o`ylanishga chaqiradi. Frantsiyaning jabuni mustahkam devorlarga, mashikullar sistemasiga, lopatkalarga va Lomardiya dekoriga ega cherkov-qo`rg`on turini yaratdi. Sent-Mari-de-la-Merdagi cherkovda altar bo`limni donjon yakunlab turibdi.

Frantsiyaning Luara va Garonna orasidagi g`arbiy viloyatlari – Akvitaniya va Puatu-baland transeptlarir, keng xorlari bor ta`sirli roman cherkovlarining katta seriyasini meros qilib qoldirdi: gohida kapellalarga boy aylanma yo`llar ham uchrashadi. Puatu cherkovlariga yuqoridan yorug` tushmaydi: bosh nefning tsilindr kabi gumbazining tirgaklarga tushib turgan bosim kuchi, bosh nef bilan birday balandlikda qurilgan qalqon gumbazlar bilan ozaytirilgan. XI asrdagi imoratlarning g`arbiy fasadi karolinglik dastur bo`yicha narteks (g`arbiy tomondan ulanib solingan joy) ustidagi baland minorani saqlab qoldi. XII asrning 20-30 yillari Puatu arxitekturasi o`zining tashqi ko`rinishida plastik ta`sirchanlikga ega bo`ladi, haykal bezaklarining roli kuchayadi. Puatuning markaziy esdaligi Puat`edagi uch nefli Notr-Dam la Grand cherkovi (XI asrning oxiri – XII asrning o`rtalari). Imorat keyinchalik gumbazlar bilan qayta bostirilgan. Fasad XII asrning ikkinchi choragidan keyin paydo bo`ldi. [II.9,33-39]

Frantsiyaning g`arbining o`zining gumbazli cherkovlari bilan shuhrati chiqdi. Perigorning arxitektura esdaliklari orasida asosiy o`rinda perigedagi Sen Fron sobori (1120 yildan keyin) egallaydi. Cherkovni qalqon tarxli joylashtirilgan, barabansiz parusga o`rnatilgan besh gumbaz bezab turibdi. Sen

Fron inter`erida gumbazlarni ko`tarib turgan keng arkalar va kvadrat pilonlarning ko`tarinki-tantanali ritmlarining qudrati o`ziga tortadi. Normandiya bosib oluvchi Vil`gel`mning (Vil`gel`m Zavoevatel`) yurishlaridan keyin Angliyaning koninentdagi egaliklarining tarkibiga kiritildi. Normandiyalilar o`zlarining qurilish usullarining La-Manshning orqa tomoniga kuch solib tarqatdi, shuningdek bu Normandiya va Angliyadagi joylarning o`xshashlik belgilariga sababchi bo`ldi. takomillashgan oqimdag bir qancha ahamiyatli normann cherkovlari Kana da saqlanib qolgan. Kana qyirilishlari orasida ikki monastir cherkovlari –Sent Et`enn va Sent Trinite alohida ajralib turadi. Sent Trinite cherkovi (1019-1066 va 1100-1130 yy.) o`zining sistemali proportsiyalari va arkalar qatorining keng qadamlari va triforiy bilan aniqlanadigan, inter`erining yarashganligi bilan o`ziga xos . XII asrda imoratni qaytadan o`zgartirib qurish vaqtida to`liq tugatilgan g`arbdagi minoralar (nervyur gumbazlar ham shu vaqtlari qurilgan) zo`rlikgan kuchga to`la, ularda yarusdan yarusga ortib boradigan vertikal bo`laklarga bo`linish seziladi. G`arbiy fasadning kompozitsiyasi keyinchalik gotika cherkovlarining quruvchilari tomonidan foydalaniladi.

Roman davrining himoyalanihiga maxsus va yashash o`rni sifatidagi qo`rg`on-saroilar qurilishlari Frantsiyada oz sonli esdaliklarda ko`rinadi. Bizgacha etib kelgan qo`rg`on-saroilarning eng ertadagisi – Lanjdagi donjon (994 y.). bu, to`g`ri burchakli ko`rinishdagi imorat passiv himoyalanihga hisoblangan. Qalqonlikr tomonidan topilgan yangiliklar Frantsiyaga birdan kirib kelmadi. Aktiv qarshilik ko`rsatish printsipi roman oqimidagi Karkasson qo`rg`onining (XII asr) asosiga kiritilgan. Asosiy o`rinni devorning ustidan balandga ko`tarilib va darvozalarni nazorat qilib turgan aylana minoralar egallaydi. Karkassonda donjon yo`q edi. Karkassonning tashqi yashirinadigan joylari, Siriya va Palestina tajribalarini ko`proq darajada qabul qilgan, Kus iva Shato Gayar qo`rg`onlari endi kelgusi davrga tegishli.

Frantsiyada roman davridan bir necha shahar uylari – Liondagi «Sozandalar uyi», Klyunidagi uylar, Sent-Antonendagi ratusha boʻlgan uy-saqalanib qolgan. Ular oʻzlarining dekorativ bezashlarining yigʻindisini va ayrim konstruktsiyalarini bir qancha koʻproq rivojlangan diniy arxitekturadan oldi. Shu vaqtlardagi koʻprik quruvchilik haqidagi tushunchani Avinʻondagi Sen Beneze koʻprigi (1177-1185 yy.) va Evrodagi koʻprik beradi. Frantsuz roman rangtasvirining gullanishi XI asrning oxiri – XII asrning birinchi yarmiga toʻgʻri keladi. Bizgacha etib kelgan monumental rangtasvir esdaliklarining umumiy soni yuzga teng boʻlsa ham, butun ansambllar juda oz sonda saqlanib qolgan, asosidan olganda bular bir vaqtlardagi juda katta tsikllarining boʻlaklari va lavhalari.

Markaziy asar – Sen-Saven-syur-Gartmpdagi monastir cherkovining devor rasmlari (XI asrning uchinchi choragi – 1115 y.). Bu erda eng katta va Frantsiyaning roman rospislariga juda xos boʻlgan ansambl saqlanib qolgan. Rangtasvir bosh nefning gumbazini, gʻarbiy emporalarni, narteks va kriptani qoplab turibdi. Uni bajarishga bir neche ustalar qatnashgan. Sen-Savenadagi ansambl birinchi navbatda badiiy sanʼatning bir qancha eskirgan, biroq taʼsirli, salmoqli avtohtonik oqimi haqida tushuncha beradi.

Markaziy nefning gumbazida, uning ikki yon bagʻiri boʻylab, ikki qator boʻlib, friz tarzli joylashtirilgan Eski Vasiyat koʻrinishlari tasvirlangan. Devor rasmlar bilan tanishish tomoshabinning interʻer boʻylab murakkab harakatini nazarda tutadi. Rangtasvir erkin va joʻshqin. Voqealar gohida sabrli tantanalilik bilan boʻlib oʻtadi, gohida harakatchan boʻladi. Har bir koʻrinishga umumiy oxrali rang chegarasidagi belgili bir rangli tonal xos keladi. Xudo-eski vasiyat koʻrinishlarining koʻpchiligining majburiy qatnashuvchisi. [II.19,77-83]

Yaratuvchining figurasi taʼsirli va aslzodalik belgilariga ham ega. Uning harakatlari nasihatgoʻy, tantanali erkin va hukmdor. Xudoga munosabati boʻyicha boshqa qatnashuvchilar hurmat bilan boʻysunish, albirash, quvonchli hayron qolish yoki til olmaslik bildiradi. Kriptaning rospisi-bir qancha puxta va chambarchas. Bu erda ishlagan ustani hikoyaning sistemaliligi oʻziga tortgan. Nartekstda yozish

usuli qat'iyon va o'tkir ta'sirli. Boshlarning aylanasidagi nurlarning, oshlarning, farishtalarning qanotlarining chiziqlari tinchsiz ritmda burqasinlashni, qalin bo'yoqlar orasida oq rang ko'zni qamashtirib yarqiraydi.

XII asrning boshida o'rta asrlardagi frantsuz monumental rangtasvirining katta asarlarining biri – Berze-la-Vil'dagi priorat kapellasining rospisi paydo bo'ldi. Klyuni- 3 ning rangtasvir dekoratsiyasining yo'qotilishi bilan bu erdagi freskalar – Klyuni badiiy san'atining ahamiyatli guvohi. Devor rasmining dasturi Klyuni orderining va monastirining alohida ahamiyatini atab ko'rsatish istagi bilan tuzilgan. Unga zamondosh rangtasvirchilar orasida Berze-la-Vil'dagi rospis' obrazlarining tuzilishi bo'yicha ham, shuningdek bajarilish usuli bo'yicha ham bir qancha o'z oldiga turadi. Rassomlar Italiyaning janubidan Angliyaning shimoligacha masofadagi har xil dasturlarni biriktira olgan, biroq yaxlitligi bilan olganda rospis' to'g'ridan-to'g'ri o'xshashlikga ega emas, bu Klyunishi rangtasvirchilarning o'z oldiga turadiganligini ko'rsatadi.

Noan-Vikedagi Sen-Marten cherkovining freskalari (XII asrning ikkinchi choragi) salmoqli, uyg'un va ilmi Klyuni badiiy san'atiga qarama-qarshi ko'rinishga ega. Ularda oddiy xalq ruhi aniq seziladi. Barcha naqshli bezaklar birdan-bir namunada, taxminan bir rassom tomonidan bajarilgan bo'lsa kerak. Noan Vikedagi freskalarining oqimi harakatchan, bu erda rangtasvir odatdan tashqari shovqinli deb aytishga bo'ladi: voqealar jadallik bilan tarqaldi, voqea qatnashuvchilari ko'rsatkich barmoqlarini yuqori ko'tarib, qo'llarini qizg'in siltaydi, keng qadam tashlab bir-birining quchog'iga otiladi, tizzalab yiqiladi. Voqealar oq ko'ngillik bilan bayon etiladi. Qatnashuvchilarning barchasining og'izlari kichkina, qizil dog'lari bor chekkalari, gohida hayron qolib, gohida qo'rqituvchi qat'iyatlik bilan qaraydigan ko'zlari bor yuz ko'rinishlari bir tipda.

Tavandagi Sen Nikola cherkovining (XII asrning o'rtalari) kriptasining rospislarini oqimining o'tkir ta'sirchanligi va antik asoslardan uzoq belgilari ajratib turadi. Rangtasvirning bir ustaxonaga tegishli ekanligi gumonsiz. Ehtimol rospisning asosida odam ruhining kurashi va azob chekishi g'oyasi yotgan bo'lsa

kerak. Figuralar keng gorizontal yo`laklar yoki ochiq rangli grunt fonida tinchsiz ko`rinishlar turida paydo bo`ladi. Apsidadada farishtalar va injilchilarning simvollari bilan birga kelayotgan, manroladagi Xristos paydo bo`ladi. Uning katta figurasi barcha dasturning yakuni sifatida konxada hukmdorlik qiladi. Kriptada obrazlarning dramaliligi boricha ochilgan. O`ziga nayza urayotgan ishqibozlilik allegoriya figurasi o`ziga xos.

Roman davridagi Frantsiyada kitob bezash san`ati boshqa davlatlar bilan taqqoslaganda turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Eski skriptoriylar Luara va Maas oralig`idagi viloyatlarda saklanib qoldir va ishlashni davom ettird. Bora-bora ularga Limojdagi, Muassakdagi, Al`badagi, Anjdagi, Klyunidagi yozish va miniatyuraning yangi ustaxonalari qo`shilib bordi, Benediktinlar monastirlari bilan bir qatorda miniatyuraning rivojlanishida Klervodagi, va ayniqsa Sitodagi tsistertsianlar skriptoriylari ham katta ahamiyatga ega bo`ldi. Davlatning bo`linganligi badiiy markazlarning turlicha yo`nalishiga sababsi bo`ldi. Frantsiyaning janubi er O`rta dengizi – Italiya, mosarbli Ispaniya va ular orqali, uzog`iroqdan arab Sharqi va Vizantiya bilan bog`liq bo`ldi. Shimoliy anglosakson miniatyurasining harakat qilish chegarasida bo`ldi va o`z navbatida Angliyaning janubiga ta`sir ko`rsatdi. Frantsiyaning sharqi Maas vodiysiga mos bo`ldi va Otton rassomlarining tajribasi bilan tanish bo`ldi. Il`-de-Frans viloyati o`zining izlanishlarida Shimoliy badiiy san`atining ahamiyatli tarkib bo`lagi bo`lgan karoling dasturlariga suyanadi. Frantsiyada ayniqsa tajrimoiylik adabiyotli illyustratsiyalashga havas kuchli bo`ldi: har bir monastir rassomlardan dasturiy ikonografiya formulalarni turlicha tahlil qilinshi talab etdi, yangi ta`sirlarni izlashga va rasmlarning yangi turlarini ishlab chiqishga majburladi.

Dastlabki qo`lyozmalar (manuskriptlar) o`lchamlari bo`yicha uncha katta emas va rangtasvir mahoratining belgili darajada pasayishi bilan ajraladi. O`zgarish XI asrning o`rtalarida yuz berdi. Gaskon`da atoqli «Sen-Sever Apokalipsisi» (XI asrning o`rtalari, Parij, Milliy kutubxona) yaratildi. Miniatyuralarning muallifi Stepan Garsiy beataning «Tushuntirishlariga» ertada

ishlangan illyustratsiyalarga suyandi. Sen-Severdagi qo'lyozma yorqin tushunarligi, o'ziga xos «applikatsiyaliligini», hikoya etishning fol'klor ruhini saqlab qoldi, biroq frantsuz erida ispaniyali tub nusxasining sharqga xos yoqimlilikini yo'qotdi.

Shimoliy hudud bunday ta'sirli kuchgi ega esdaliklarni birdan yarata olmadi. Bu erda karolinglik meroslar yangidan qayta o'ylab ko'rishga duchor bo'ldi. nomi, Parij Milliy kutubxonasidagi, yozilib olinadigan «Leksionariy» dan tashqari, yana ham «Sen-Jermen-de-Pre Psaltiri» (XI asrning o'rtalari) bilan bog'laydigan, usta Ingelard tushunarli va uyg'unli kompozitsiyalarni, harakatchan, biroq salmoqli ritmlarni yaxshi ko'rdi. U mohir, kalligrafiyali rasmni afzal ko'rdi. La-Manshning orqa tomonidan materikga o'ynaqchigan rangtasvir, harakatchan o'simlikli naqshlash keldi. Orol badiiy san'atining karolinglik meroslar va mahalliy dasturlar bilan o'zaro ta'sir etishi o'ziga xos alohida oqim yaratdi. Korbi ustaxonasida yaratilgan «Am'en kutubxonasi Injili» da (XI asrning ikkinchi yarmi) obrazning hissining kuchi boricha ochilgan. Injilchilarning tanasida keskin egri chizikli buralmalilik berilgan, ularni qurshob turgan narsalar harakatda bo'ladi: pardalar tez ko'tarilib va tebranib turibdi, eshilmali lentalar sutinlarni aylanib o'ratiladi, injilchilarning simvollari haqiqiy akrobatik ustalik ko'rsatadi. Kiyimlarning bichimlari tanani jadal tezlik bilan o'rab oladigan rangli yo'laklarga aylangan.

Frantsiyaning g'arbida boshqacha, ruhi bo'yicha bir qancha qat'iyatliroq va oqimi bo'yicha kelishgan oqim o'rinli. Puatu ustalari sharoitning qayg'uliligini alohida ajratib ko'rsatishga mos bo'ldi («Avliyo Radegondaning hayoti», XI asrning o'rtalari, Puat'e, Shaharlik kutubxona), bunga qarama-qarshi, Anju miniatyuralarida voqeaning tashqi ko'rnishi o'jizlangan, biroq ichki chigalashish boricha kuchaytirilgan. Kompozitsiya va figuralar tuzilishiga, predmet – dunyo muvozanatlikga va zichlikga ega. [II.36,87-93]

XII yuz yillikning bo'sag'asidav, Evropaning barcha erlaridagi kabi, Frantsiyada ham Vizantiya sohasi, badiiy san'atining ta'siri sezila boshladi.

Vizantiyalashtirishga intilishlarning asosiy manbai Italiya bo'ldi, oradagi g'oyani tarqatuvchilar amaliy badiiy san'at, emal, o'yma naqshli suyakdan ishlangan asarlar bo'ldi. Frantsuz miniatyurasining rivojlanishida Vizantiya Lektsonariylarining illyustratsiyalari ahamiyatli rol o'ynadi. Yangi yo'nalishning yo'l ko'rsatuvchisi Kloni bo'ldi. Vizantiya namunalari frantsuz miniatyurasiga kompozitsion tartiblashganlik berdi, ikonografiyalik formulalar bilan qurollandirdi, kiyim va odam tanasining o'zaro munosabatini yangicha tushunishga yordam berdi. Biroq Vizantiya dasturlari Frantsiyada toza turida hayot surmadi. Mahalliy maktablarga o'zaro aloqada bo'lib, u bir qancha darajada o'zgarishga uchradi. Hozirgi vaqtda roman Frantsiyasining, oqimi bo'yicha eng ko'proq vizantiyalashtiruvchi qadimgi qo'lyozmasi – «Suvin`i Tauraty» (XII asrning so'ngi choragi, Molen, muzey) Shimoliy Frantsiya bilan bog'liq. Uning bezaklari oltin rangdan juda ko'p foydalanilgan katta syujet miniatyuralarni va badiiy initsiallarni o'z ichiga oladi.

Initsiallar roman qo'lyozmalarining alohida sohasini tashkil qiladi. Matni boylab o'tirib, ular erdagi kundalik hayot va o'rta asrlik odam uchun yuqorgi haqiqat bo'lgan, xudoning ilohiy so'zlari podsholigi orasidagi chegaralik maydonni paydo etdi. Shuningdek roman initsiallarida qayg'uli voqealar yuz beradi, ikki dunyoning o'arasiz yakkama-yakka kurashga tushadi. Ularning biri – xalq xayolida tug'ilgan, hayron qoladigan va mubolag'a bilan tasvirlangan, o'zining xayoliy kuchi bilan cheksiz, mangu o'zgarishga uchrash va yangilanib turadigan – xayolik balomatlarining, hayvonlarning, suv parilarining va akrobatlarning chirmashgan dunyosi. Boshqa dunyo – tartiblashtirilgan va yopiq, o'zining kelishganligi mustahkam, mo'jizali rasmlar shakllangan mustahkam ikonografiya qoidalar shakliga keltirilgan mo'jizali matnlarga tushunchalar dunyosi. Roman Frantsiyasining rangtasvir maktablari orasida Limojning miniatyura san'ati ajralib turadi. Bu erda naqsh va rangli qarama-qarshiliklarni afzal ko'rdi; alohida ajratib ko'rsatilgan konturlar va figuralarning tekislililigi irodasiz emal'erning ishlarini esga tushiradi. Bunday o'xshashlik sababsiz

emas. XII va XIII asrlarda Limoj o`yiqli emal` bilan qoplangan, oltin yalatilgan misdan ishlangan buyumlarni ishlab chiqarishning ahamiyatli omarkazi bo`ldi. Limojli ustalarning san`ati tantanali atoqga loyiq bo`ldi. O`rta asrlik evrolpada u erdan Limoj buyumlari topilmaydigan cherkov deyarli yo`q edi. Atoqli ustalar eng har xil buyumlarni – piksidlar, antependiyalar, sandiqchalar, hattoki qabir esdaliklarini ham – ishlab chiqardi. Ayrim erlarini emal` qoplamalar bilan qoplashdan, limojli ustalar ishqilab yaltiratilgan rangli rasmning misning yarqiragan yuzi bilan qarama-qarshiligini ta`sirli, kelishgan holda qo`llanib, buyumning yuzini tekis emal` bilan to`ldirishga o`tdi. XIII asrdagi ishlarda bu taqqoslash rangli fonni va rel`efli rasmlarni bir-biriga qarshi qo`yish sifatiga ega bo`ldi.

Roman davridan bizgacha etib kelgan oz sonli fuqarolik esdaliklar orasida hurmatli o`rin, yaratilishi Normandiya korolevasi Matil`daning nomi bilan bog`liq, Bayyoden topilgan, atoqli gilamga (XI asr, Bayyo, muzey) tegishli. Gilamga kashtalab tikilgan ko`rinishlar Angliyaning normannlar tomonidan bosib olinishi haqida etadi. Deyarli etmish metrli lenta asosiy voqealarni: yurishga tayyorlanishni, harbiy kemalarning harakatini, qizg`in jangni, qurbon bo`lgan askarlarni va otlarni-to`liq turda qayta jonlandiradi. XI asrda Frantsiyada monumental haykaltaroshlikning qayta tiklanishining dastlabki belgilari sezila boshladi. Qadimgi dunyo esdaliklari ko`p bo`lgan va haykalli asarlar yaratish dasturlari hali to`liq yo`qolib ketmagan, davlatning janubida u ertaroq paydo bo`ldi. Biroq, degan bilan haykaltaroshlik unutilgan yillar izsiz o`tib ketmadi. Davrning boshida uvstalarining texnik qurollanganligi kuchli emas, plastik hislar ojiz rivojlangan edi. Dastlabki haykal rasmlar sutinlarning kapitelolarida va portallarning manglaychalarida paydo bo`ldi. XI asrning syujetli kapitellarining bizgacha etib kelganlari oz. Kryuadagi soborning kriptasidagi orantning yolg`iz figurasi juda ta`sirli (XI asrning boshlari). U bolaning fikriday sodda va shartli, biroq tabiiy toshlik ko`rinishi bilan uni yutib yuborishga tayyor turgan yalpoq

rel'ef bilan talashda haddan tashqari katta qo'llarning ayamay siltashlarida kuchli ta'sirchanlik hislar bor. [II.13,78-87]

Puat`edagi Sen-Benua-syur-Luar, Sent-Iler, Burjedagi Sent-Yursen monastirlarining cherkovlaridagi XI asrning ishlari haykal mohirligining qanday maydalab yig`ilganligini ko`rsatadi. Yangi bobni Tuluzdagi Sen Sernen cherkovining rel`efi boshlaydi. Bu erda antik qurilishlar va Gall-Rim davrining asarlari saqlanib qoldi. Anik plastikani tadqiqot qiliz hozirgi vaqtda Sen Sernen cherkovining aynala sirtiga qurashtirib o`rnatilgan marmar plitalarda (taxminan 1096 y.) ko`rinadi. Rel`eflar oqimlik birlikga ega emas, ularning har birida foydalanilgan manbalar ko`rinib turibdi. Apostolning rasmi antik qabir ustiga qurilgan stelaga taqlid qilish sifatida ishlangan; altarni bezab turgan rel`eflar ilk xristian sarkofaglarga (tosh tobutlarga) o`xshatib ishlangan; «Shuhratga erishgan Xristos» monumental rel`efi rangtasvirda va zargarlik san`atida takomillashtirilgan usullardan kelib chiqqan. Bir qancha to`lig`iroq kartinani atoqli «M`ejvil`» portalining rel`eflari (taxminan 1118 y.) ko`rsatadi. Ularning mualliflari ilk o`rta asrlarning o`yma naqshli suyalarini, antik rel`eflarni va toshga badiiy, o`yma naqshli qiib ishlangan bezaklarni (kameyalarni) bilganligi so`zsiz. Portal Frantsiyaning roman cherkovlaridagi plastik bezashlarning jamlanish markazi bo`ldi. Syujetlik dastur diniy ta`limot tuzilishining aqlga muvofiq ketma-ketligi va alohida murakkabliligi bilan ajralib turmadi. Shu zamonning diniy vasiyatchisi kabi, roman ustasi ham o`z zamondoshlarining aql o`yining ilg`or, etuk isbotlariga qaraganda ko`proq darajada to`g`ridan to`g`ri ularning hislariga va xayoliga ta`sir etishga intildi. O`rta asrlik cherkovning portali ikki dunyoning – gunohkor xalq va ilohiy (mo`jizali) dunyoning chegarasida joylashdi va ularni o`zaro bog`lashi lozim edi. Shuningdek portallarni bezashdagi Qo`rqinchli sud ko`rinishi yoki Shuhratga erishgan Xristos kabi apokalipsistlik mavzularning afzal ko`rilishi shu vaqtlar uchun juda xos edi. Atab aytganda diniy ta`limot qarashidan xuddi shu Qo`rqinchli sud zamonlar orasidagi aloqani va dunyolarning birligini qayta tikladi, o`tmishni, hozrgi kunni

va kelajakni birlashtirdi va mangulikni isbotladi. Shuning bilan bir vaqtda toshdagi o`git-nasihatning vazifasigap faqatgina umumiy xristian g`oyalarni va katolik uchun juda ahamiyatli bo`lgan, insoniyatning gunohkor ekanligi haqidagi fikrni bildirib qolishi emas, balki gunohlardan poklanish va azobdan qutilish yo`lini faqatgina cherkovning oraga tushishi orqali topish mumkin ekanligiga ishontirishda ham edi.

Haykaltaroshlik va arxitekturani bir butunlikga birlashtirish yo`lidagi ahamiyatli qadam Muassakdagi Sen P`er cherkovining janubiy portalini (taxminan 1120 y.) ishlagan ustalar tomonidan otildi. Bu erda o`rta asrlik badiiy san`atning asosiy ikki printsipi: qadimgi dunyodan (antiklikdan) irmoq oladigan plastik, tasvirlash va varvarlik fol`klorlik – yalpoq tekislikli va naqshli asoslar uchrashadi. Bu yo`ldagi tezlashtiruvchi asos (katalizator) – xalq tushunchasidagi miniatyura (atab aytganda «Sen-Sever Apokalipsisi») bo`ldi.

Kirar eshikning ustida tasvirlangan apoklipsislik ko`rinish tomoshago`yning ko`z oldida, shakllarning va chiziqlarning tinchsiz tarqoqligidan paydo bo`lganday bo`ladi. Odamning nazari, yarim aylana bilan jiyakldanib bir erga jamlangan markaziy guruhni – apokalipsislik belgilar va farishtalar qurshovidagi harakatsiz Xristni – faqatgina asta-sekinlik bilan, oz-ozdan to`lig`iroq qamrab oladi. Oq soqolli yigirma to`rt qariya (ular Xristosning qoshida, uch yarusga bo`linib joylashtirilgan) boshlarini ko`tarib, qayta tirilib, ikkinchi marta dunyoga kelishga qarab turibdi. Muassakdagi qariyalar va Xristos harakat etmaydi, biroq ular belgili bir holatda bo`ladi. rel`ef, unda vaqt to`xtab qolgan, juda katta toshga aylangan tushday bo`lib ko`rinadi. Muassak haykal yaratuvchilarining plastik tushunchasining jamlangan butunligi roman haykaltaroshligining asosiy xossalarini (sifatlarini), ruh va tananing, tashqi o`zgaruvchanlik va o`zgarmaydigan haqiqatlikning bir-biriga qarama-qarshi ekanligini boricha ochib ko`rsatdi. Bu qarama-qarshiliklarning plastik tushunchadagi keskinligi, taxminan portalning chap yon tomonidagi chiqib turgan eridagi avliyo Petrning figurasida bir qancha aniqroq ko`rinadigan bo`lsa kerak. Hislarning va harakatlarning

rivojlanishi toshning harakatsiz materiyasi bilan qarshiladi. Usta hajmlarni geometriyalashtiradi; kiyimlarning g'ijimlari tekis yuzadagi yalpoq naqshli chiziqlar kabi paydo bo'ladi. Frantsiyaning har xil tumanlaridagi haykaltaroshlik bezashlarning xususiyatlarini XI asrning oxiridan-yoq sezilarli bo'ldi. Territoriyasi bo'yicha ular arxitektura maktablarning ta'sir etish chegarasiga to'g'ri keladigan edi: haykaltaroshlar va tosh yo'nuvchilar rangtasvirchilarga qaraganda ko'proq darajada qurilish arteli bilan bog'liq edi. Burgundiya bu erda ham birlashtiruvchi markaz rolini o'ynadi. Sherl'yodagi eski portal (taxminan 1090 y.) roman davridagi Burgundiya plastikasidagi klassitsizmlashtiruvchi oqimni ko'rsatadi. Bu yo'nalishning asosiy tarafdori Klyuni bo'ldi. Ordenning uchinchi cherkovining juda ko'p haykallik bezaklaridan ozgina narsalar qoldi: asosiy altarning bo'laklari, allegoriyalik figuralari brr bir necha kapitellar va besh metrlik tantanali timpaning qoldiqlari. Bu asarlar 1095 va 1125 yillar oralig'i bilan sanalanadi deb faraz qilinadi. Klassik dasturlarning yangrashi sifatidagi Klyuni haykaltaroshligining ahamiyatli xossasi – odamga chuqur diqqat qaratish. Klyunidagi allegoriya jannat daryolari va ta'sirli, gunohga botish ko'rinishi tasvirlangan kapitel boshqacha, hikoya qilish usulida bajarilgan: Odam ota va Havo ena (eva) hech narsani tushunmaydigan ikki go'dak kabi soddalik bilan taqiqlangan mevdan eb lazzat olayapti. Biroq Burgundiyali haykaltaroshlar ilhomlanishni haykaltaroshlikdan emas, balki Klyunishilarning rangtasviridan oldi. Rangtasvir ishlarga bo'lgan bunday qiziquvchilik sababsiz emas. Rangtasvir izi uzilmagan dasturga ega bo'ldi va katta tekisliklarni mohirlik bilan tashkil qila olish va arxitektura fazoviylik bilan o'zaro aloqada bo'lish qobiliyatiga ega monumental badiiy san'at bo'lib qoldi. Klyunining vizantiyalashtiruvchi rangtasviri va janubning plastik intilishlarining uchrashgan erida roman Frantsiyasi monumental plastikasining ko'pchilik katta intilishlari yaratildi. Vezledagi Sent Madlen cherkovining bosh timpanii hozirgi ko'rinishga haqiqatdav XII asrning 20-40 yillari, o'rtanib ketgandan keyin imoratni qayta qurish qo'lga olingan vaqtlari ega bo'lgan bo'lsa kerak. Qalqonlilar yurishi

yangidan boshlanar vaqtlari portalning dastlabki dasturi o'zgartildi va aniq ko'rinib turgan cherkovlik-siyosiy ma'noga ega bo'ldi. Timpan Xristosning shogirdlarining missionerlik vazifasini, xristianlikni har xil hattoki fantasik (xayolik) xalqlar orasida ham tarqatishni alohida atab ko'rsatdi. Burgundiya plastikasining markaziy asari deb, Otyondagi Sen Lazar cherkovining (taxminan 1125-taxminan 1145 yy.) haykal bezalishi tan olinishi lozim ekanligi gumonsiz. Sifati bo'yicha eng yaxshi haykal rasmlar usta Jil'ber (Gislebertus) rahbarlik qilgan ustaxonada yaratildi. Otyonli haykaltarosh va uning yordamchilarining ijodida davrning dunyoga qarashi bir qancha yorqinroq ochiladi. Jil'ber yirik usta va siyrak uchrashadigan zehni odam edi. U Vezle dekorini bilgan va uning ustida ishlagan deb taxmin qilinadi. Unga Klyuni guruhining rangtasviri ham belgili edi. [II.1,22-34]

Haykaltarosh g'arb timpaning o'rtasida taxtga o'tirgan Xristning oyog'ining ostiga lotincha, faxr bilan: «Buni Gislebertus ishladi», – deb yozilganligi, bu o'rta asrlik ustaning ong-hissining uyg'onganligidan guvohlik beradi. Otyondagi haykal tsikl g'arbiy portaldagi Qo'rqinchli sud ko'rinishi, Eski va Yangi vasiyatlarning voqealarini tasvirlovchi syujet kapitellar seriyasini, va shuningdek avliyolarning azob chekishining, allegoriya figuralarning, Ezopning nasihatgo'y timsollarining tasvirlanishini o'z ichiga oladi.

Qo'rqinchli sud kompozitsiya tomonidan ham, diniy ta'limot qarashidan ham butun ansamblning uvertyurasi (kirishish bo'limi) va finali (yakunlovchi bo'limi) sifatida paydo bo'ladi. Timpaning markazini Xristosning juda katta, qarshi olidan joriy qilingan figurasi egallaydi. Uni qurshab turgan, suyri-so'poqligi arxivol'tlarning yarim aylanasiga ta'sir etadigan, katta mandoralni to'rt farishta ushlab turibdi. Bu, birining ichidan biri chiqib taralib ketganday bo'lgan aylanalar mavzusi Xristosning qo'lining harakati bilan atab ko'rsatilgan. O'zining butun turi – pozasining qat'iy simmetriyasi, qo'llarining salmoqli harakati, ayniqsa o'z o'yiga chuqur berilishi va beparvolik ustunlik etib turgan yuzining ko'rinishi bilan Xristos o'zida jahon qarama-qarshiliklarni echa oladigan kuchni

ko`rsatadi. Kompozitsiyada do`zax va jannatning urni mo`jizali topografiya shartlari bo`yicha baxtli, o`ng va qarg`ish tekkan, chap tomon qilib ko`rsatilgan, biroq Otyondagi rasm tomoshabinga mustaqil tanlash uchun ham imkoniyat qoldirgan. Rasm ko`rsatmali qarama-qarshiliklar bilan zo`rlab ishontirmaydi, balki ketma-ketlilik bilan tushuntiradi. Usta ko`z qiziqarliroq topqirlik bilan jannat va do`zaxni, shayton va apostollarni dinchilarni va gunohkorlarni bir-biriga qarama-qarshi qo`yadi. Jil`berning tasvirlash tili aniq va shirali, rel`eflarda jonli kuzatishlar va ta`sirli detallar ko`p, diniy marosimlilik gohida kuendalik hayotiylik bilan aralashib ketadi. Kapitellarning rel`eflaridagi mo`jizali rivoyatga tushuncha berish usulida diniy syujetlarni xalqning tushunish ruhi seziladi. O`rta asrlar ong-hisi injil rivoyalarini faqatgina o`tmishdagi voqealar deb hisoblamadi. Ularning ishonchi bo`yicha diniy marosim (liturgiya) ibodat qilayotganlarni mo`jiza bilan shu voqealarning qatnashuvchisiga avylantiradi. Shuningdek cherkov devorlaridagi rasmlar o`tmishni va hozirgi kunni birga qo`shib uyg`unlashtirdi. Shu orqali rivoyatni «zamonaviylashtirish», bibliya personajini o`zining zamondoshlariga yaqinlashtirish, hozirgi zamoni mo`jizali rivoyat qarashidan va aksincha ko`rishga imkoniyat tug`iladi. «Misrga qochish» rel`efida Otyonli usta dasturiy ikonografiyani o`zgartmadi, biroq butun ko`rinishga irodasiz, ziyoratchilar yoki uy-joysiz qolgan odamlar, azob va baxtsizliklardan qochib qutilishga intilgan odamlar izg`ib yurgan, XII asrdagi Evropa yo`llari haqida o`ylashga majburlaydigan, hayotdan olingan va yurakni ezadiganligini jonlash berdi. Jil`ber va uning ustaxonasi o`zining ansambliga birdan bir qizg`in ta`sirli jonlash bera oldi. Uni, Vezelening ko`tarinkiligi va Muassakning mistikaliligiga qarama-qarshi, lirik deb atashga ham bo`lar edi. Jil`ber voqealar haqida hikoya etadi va uni ko`rsatadi. Qarshi oldidan ko`rsatilgan o`tirish-turishlar (pozalar) to`rtidan uchiga turilgan yoki yon tomonidan ko`rsatilgan rasmlar bilan qo`shni, harakatning olg`a qarab rivojlanishi deyarli barcha erda qarshi harakat bilan muvozonatlilikka keltirilgan. Usta figuralarning proportsiyasini juda erkin qo`llanadi, gohida ular haddan tashqari uzaytirilgan.

Biroq shamolda tebratilib turgan ingichka poxolday bo'lgan bu, jonli odamlarda ma'naviy ruhiy hayot kuchli seziladi. Jil'berning badiiy mahoratida ko'zning rangli pardasini o'yma naqshga to'ldirilgan o'yiqday qilib tahlil qilinishi katta rol o'ynaydi. Shuning bilan birga unga tushib turgan soya nazarga chuqurlik va ruhlanuvchilik bag'ishlaydi. Otyonli ustaning haykallarida ma'naviy harakat ichdan paydo bo'lganday bo'ladi, butun tanati harakatga keltiradi, kiyimlarning «burmalangan», grafik berilgan g'ijimlarining nozik va musiqali ritmikasida, farishtalarning qanot qoqishida va kiyimlarning hilpirab turgan etaklarida ifodasini topadi. Hilpirashning qahramonlariga ma'naviy nurlanish, haq niyatli bo'ysunuvchilik, umidsizlik va jazodan qo'rqish tushunarli. Bu hislar sodda bo'lsa ham to'liq va ahamiyatli. Jil'ber, bizgacha shu vaqtlardagi odamning ko'rinishini uning eng bir jonli, odamga xos ko'rinishida etkazadi.

Otyon cherkovining hozirgi vaqtda yo'qolib ketgn, shimol tomondagi portali uchun Havo enaning (Evaning) haykali (1125 yildan keyin, Otyondagi Rolen muzeyi) yasalgan edi. Bu roman badiiy san'atida yaratilgan eng diqqatga loyiq obrazlarning biri. Yalang'och tanani tasvirlash o'rta asarlaridagi eng sevimli mavzular qatoriga kirmaydigan edi. Asketlik ideal ham tananing nuqsonsizligini ko'rsatish istagini uyg'otmaydigan edi. Yalang'och yurish dastlabki otobobalarning va sud kungi gunohkorlarning atributi edi. Rel'efning cherkov manglaychasiga joylashtirilishi figuraning gorizontal holatiga sababchi bo'ldi. Otyondagi Havo ena (Eva) o'ngaysiz, uning pozasi bir qancha shartli (avtor bu erda o'zi yoqtiradigan va avval qo'llanilgan, figuraning tizzalari yarim bukilgan motivini takrorlaydi). Naqshli tahlil qilingan jannat bog'ining meva yog'ochlari orasidagi Havo enaning figurasi katta arabeska kabi bo'lib ko'rinadi. Biroq o'rta asrlar rassomi odamning ma'naviy mas'uliyatining qadrini biladigan edi. Jil'berdagi Havo enaning obrazi Xil'desxeymdagi eshiklardagi yoki Klyunidagi kapiteldagiga qaraganda murakkabroqyo: Otyondagi Havo ena havas va gumon qilish orasidagi kurashni sezadi – uning yuzida qo'rqinch ko'rinib turibdi, balki uning qo'li bildirmasdan man etilgan mevaga cho'ziladi. [II.3,38-44]

Monumental rel'efning Puatu va Sentojdagi rivojlanii Burgundiyadagidan boshqacha bo`ldi. Bu erda uzoq vaqt davomida qaton Angulemdagi sobor (1120-1130 yy.) fasadlarni haykallar bilan bezashga turtki bergangacha, kapitellarni bezash bilan cheklanib kelindi.

Frantsiyaning g`arbida haykal bezashlar portallarning arxivola`tlarida, derazalarning jiyaklarida va kapitellarda jamlandi. Angulem, Sentoj, Puatu ustalari toshga o`ma naqsh solining sifatini nasihatli dasturlarga qaraganda taqqoslab bo`lmaydigan darajada yuqori baholadi. Ular shu bir motivni takrorlaydi, figuralarni murakkab arabeskalar turida chirmatilishini, naqshlarni xayoliy jonzotlarga to`ltirishni yoqtiradigan edi.

Bu erda birinchi marta arxivol`tlarga ishlov berishda figuralarning arkaning tashqi bichimi bo`ylab joylashtrilish usuli – keyinchalik gotika haykallari tomonidan qabul qilingan usul – qo`llaniladi. Bretanning qattiq graniti kabi Overnning qora lavalari ham bu tumandagi haykaltoroshlikning rivojlanishining imkoniyatlariga to`squinlik qildi. Overn cherkovlarining plastik bezashlari syujet kapitellar bilan cheklangan. Ularda frantsuz romanikasiga xos bo`lgan mavzu – buzg`unchilik va yaxshilik qilish orasidagi kurash – ustunlik etadi. Overnning Orsival`dagi, Mozadagi, Sen-Nekterdagi madonnalarning altar haykallari ruhining qat`iyan kuchi bilan ajralib turadi. Bu erda o`zining, Sent Fua cherkovining (1135-1140 yy.) timpanindagi, bir qo`li bilan dinchillarni, haqiqatchilarni osmonga chiqarib, ikkinchi qo`li gunohkorlarni pastga (do`zaxga) qulatayotgan Xristosning figurasi bor, tantanali yurishlarga va oldinda turishlarga to`la va do`zax o`tining qo`rqinchli ala-sapirani bilan birga bir qancha to`liq ishlangan Qo`rqinchli Sud kartinasi o`z oldiga ajralib turadi. Provansning haykaltoroshlik maktabi tarixiy maydonga boshqalardan kechroq chiqdi va o`zining asosiy asarlarini XI asrning so`ngi uchdan birida yaratdi. Rona vodiysidagi qadimgi dunyo esdaliklari Provansal` ustalarini ko`ra bilishga, tushunishga o`rgatdi, balki Provansning kar`erlari ularni yaxshi marmar toshlar bilan ta`minladi. Rim g`alaba arkalariga o`xshagan portallar, meandrlar, akant

yaproqlari, rozetkalar. Korinf kapitellari va kannelirlangan sutinlar Arldagi Sen Trofim va Sen-Jil'-dyu-Gar cherkovlarining portallarining haykal va arxitektura bezaklarining yig'indisini tashkil qiladi. Qadimgi badiiy san'atni bilish, haykaltaroshlarga avliyolarning o'z qadrini bilish hissiga to'la figuralarini yaratishga yordam berdi. Provansal` haykallarining rel'efi baland, proportsiyalari haqiqatga yaqin, kiyimlarning salmoqli g'ijimlari ostidan tana tuzilishi sezilib turibdi. Antik motivlar roman oqimlashtirishga tortilgan, toshning og'ir massasi sezilarli. Sen-Jil'-dyu-Gar abbatligi cherkovida Xristosning xavotirlanishlarining va azoblanishlarining Evropa monumental badiiy san'atidagi dastlabki to'liq tasvirlanishi paydo bo'ladi.

ANGLIYA BADIY SAN'ATI

Angliyada feodal munosabatlarning shakllanish borishi VII asrda boshladi va xristianlikning tarqalishi bilan bir vaqtda bo`lib o`tdi. IX asrda davlatning birlashishi va anglosakslar davlatining tuzilishi yuz berdi. 1066 yili frantsuz gertsogligi Normandiyaning hukmdori bosib oluvchi Vil`gelm Gastings yonida g`alabaga erishgandan keyin davlatni bo`ysindirdi. Angliyaning normannlar tomonidan bosib olinishi bilan bu davlatning tarixining ham yangi varaqlari boshlandi. Normannlar huquqi Angliyadagi feodallashtirishning teziroq tugatilishiga sababi bo`ldi: to`liq shakllangan ijtimoiy munosabatlar bu erda kontingentdan tayyor turida olib kelingan edi. Bo`ysundirilgan xalqni Angliya koroli, haqiqiy eng yirik er egasi sifatida, shu davrdagi Evropaning hech bir hukmdori ega bo`lmagan huquqqa ega bo`ldi. Angliya davlatining markazlashtiriligi, davlatning orolda joylashganligi, korol uyining, ayniqsa Pantagenetlar davrida alohida kengaygan, Frantsiyadagi egaliklarning orqasida, kontinent bilan chambarchas aloqada bo`lishi roman davridagi Angliya madaniyatining ta`rifiga ta`sir etdi. [II.11,34-39]

Bosib olinishi vaktiga kelib, Angliya kitob miniatyurasining, ta`siri materikda ham sezilgan juda yaxshi maktabini yaratdi. Aksincha, orol arxitekturasi – Vestministr abbatligining qurilishida (1049-1065 yy.) kontinent ustalarining tajribasi hisobga olingan bo`lishiga qaramasdan – Normaniyad bilan taqqoslaganda rivojlanishning bir qancha eskirgan bosqichida turdi. Materikdan bir qator oldingi qurilish usullari keldi. Dastlabki vaqtlari Normaniyadan olib kelingan ustalarning rahbarligida olib borilgan jadal qurilish sharoitida ular takomillashtirildi, orol dasturlari bilan boyitildi, o`ziga xos xususiyatlariga ega bo`ldi.

Normaniyadan kamon otuvchilar lageri atrofini qurshab turgan o`rlar va uy atrofidagi bog` donjon bilan bog`liq yashirinish joyi bo`ldi. Yog`och minonalar tez orada toshdan o`rilgan minoralar bilan almashtirildi. Dastlabki vaqtlari bular

kub turidagi, asosan ikki qavatli imoratlar bo'ldi. Ularning pastki qavatida qo'ymaxonalar, yuqorisida yashashga maxsus bo'lmalar, dam olish, kutish xonalari joylashdi. Bosib oluvchi Vil'gel'm zamonida Londondagi Tauer qurilishdi (1077 y. va keyinroq). Atoqli Oq minora undagi donjon rolini o'ynadi. Shuningdek qo'rg'on tarkibiga tsilindr tarzli gumbaz bilan bostirilgan qo'rg'on-saroy kapellasi (taxminan 1018-1097 yy.) kiritildi. XII asrda to'g'ri burchakli yoki ko'p burchakli ko'rinishdagi minora kabi donjon ustunlik qila boshladi; yuz yillikning oxirida minoralarning aylana ko'rinishi paydo bo'ldi.

Angliyaning cherkov qurilishlari, Normandiya arxitekturasining tajribasini o'zlashtirib olib, ertadan o'ziga xoslikga ega bo'ldi. Angliyaning diniy uy qurish ustachiligining o'ziga xos farqi diniy imoratda cherkovlarning monastirlik va prixdli turlarining birlashtirilishi bo'ldi. Bu Angliya cherkovlarining tuzilishini, XII asrda cherkov a'zolari uchun ham ko'p sonli ruholniylar uchun ham o'rin etarli bo'lishi xos edi. Shu maqsadda neflarning va xorning uzunligi kengaytirildi va ular bir-biriga deyarli tengday bo'lib qoldi. Uzuniga cho'zilgan ko'rinishga ega bo'lish Angliya soborlari uchun juda xos bo'ldi, ensiz uch nefli imoratlarning uzunligi 170 m dan oshganroq bo'ldi (Londondagi eski, avliyo Pavel` sobori). Transeptning uzunligi ham kattalashtirildi. Shunga bog'liq qalqon o'rtasi ustidagi va tantanaliligi orttirildi. Minoralar hali roman davrigacha Angliya arxitekturasining sevimli elementini tashkil qiladi. XI asrning ikkinchi yarmi – XII asrning soborlari baland hajmlarining har xil turlarini beradi. Normandiyadan g'arbiy fasadning ikki minorali kompozitsiyasi keldi (Vinchesterdagi va Ildagi soborlar). Angliya sobotlarining loyihalari to'g'ri burchakli ko'rinishga yaqin bo'ldi. Aylanma yo'li bor xor XI asrda paydo bo'ldi, biroq u barcha erga keng tarqalmadi. Gumbazlar Angliyada asosan yon tomon neflarda bo'ldi. Og'ir, tsilindr tarzli gumbaz yorug` tushadigan o'yiqlarga oz o'rin qoldirdi, shuningdek neflarning uzunligining kattaligi va tumanli Angliya atmosferasi sharoitida ular yaramsiz bo'lib qoldi: markaziy nefdagi derazalarning yuqorgi qator juda zarur bo'ldi. Shunga bog'liq Angliyali uy quruvchi ustalar uzoq vaqt davomida uylarni

yog'och bilan bostirishni afzal ko'rdi, Ildagi (1083-1190 yy.), Piterborodagi (XII asrning so'ngi chorogi), Sent Olbansdagi (1077 yildan keyin – taxminan 1090 y.) soborlarining o'rtangi neflari hozirgacha shunday bostirmalaroi bilan saqlanib qolgan. Biroq shu talablarning o'zi asosiy echimlarining paydo bo'lishiga sababchi bo'ldi. Darema soborining yon tmoon neflari 1096 yili qirli gumbazlar bilan bostirilgan edi, balki taxminan 1130-1133 yillar atrofida qirli gumbazlar Evropada birinchi bo'lib shu soborning markaziy nefini yopib turdi. Gumbazlarning yangi turi yuqorgi yarusning yorug'ligini saqlab qolishga imkoniyat berdi. [II.30,33-39]

Angliyaning roman cherkovlarining inter'eri arxitektura fantaztsiyasining ko'p xilligi bilan hayron qoldiradi. Bu erda ta'sirchanlik, murakkab ishlov berishga va bo'laklarga ajratishga intilish bilan uyg'unlashib ketadi. Ko'pchilik ma'qullangan usul, o'rtangi nefni uch yarusga bo'lish bo'ldi. Biroq shu qoida chegarasida Angliyali uy quruvchi ustalar hayron qoladigan rangbaranglikka erishdi. Sent Olbansdagi soborda hali ham toshlarning massasi ustunlik etaji, Piterborodagi devorlarga ishlov berish ritmlarining murakkabliligi bilan hayron qoldiradi. Sautuelde (XII asrning birinchi yarmi) ikkinchi yarusning arkalari pastki arkalar qatorining kuchli yangarishi sifatida qabul etiladi, soborning irter'erida salmoqli va aniq ko'rsatilgan ritm hukm suradi. Romzida (XII asr) biz qanday bir katta orderga o'xshagan narsani uchramiz; aylana tirkaklar ikkinchi yarusgacha ko'tarilgan va emporalarning arkalarini ko'tarib turibdi. Neflarning bir qancha uzunlikga cho'ziligi bilan birga tirkaklarning joylashtirishi ularning (ularning shakllari va juftlashtirilib uyg'unlashtirilishi har xil va murakkab bo'ldi), ayniqsa ta'minlanib kelishi, masalan Daremdagi yoki Ildagi kabi, o'zlaning takrorlanishi bilan qat'iy, mustahkam, tartiblilik sifat kiritadi. Angliya cherkovlarining tashqi ko'rinishida uy quruvchi ustalarning arxit'ektura bezashlarni yoqtiradigan edi. Ular ko'z qiziqarli topqirlik bilan devorning betini arkalar turidagi o'yiqlar va arkalar qatorining har xil turlari bilan bo'laklarga ajratdi. Shuningdek fasadlar o'ziga xos alohida «ikki qatlamlilikka» ega bo'ldi.

